

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 1-aprel chorshanba №13(9598)

INKLYUZIV TA'LIM:

kadrlar yetishmovchiligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda

3-bet



BOLA VA PUL MUNOSABATLARI

qachondan, qanday yo'lga qo'yilishi to'g'ri?

7-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Bolalarga bilim berishda yosh nuqtayi nazaridan yondashsak, ko'p narsada yutqazamiz. 2011-yildan beri repetitorman. Ishonasizmi, ayrim 11-sinf o'quvchilari otni olmoshdan farqlay olmaydi. Biroq shunday bolalar ham borki, kichik yoshidan kattalarning kitoblarini o'zlashtirib olishadi. Ilmni qanday yetkazish esa, shubhasiz, ustozning mahoratiga bog'liq.

Mirzabek HOJIYEV

Nega barcha fanlardan olimpiada bor-u, texnologiya fanidan yo'q? Ha, robototexnikadan bor. Lekin qizlarning amaliy san'at asarlari-chi? Bir chekkada qolib ketaveradimi?

Axir, o'quvchilar orasida nafaqat nazariy fanlar, balki amaliy fanlarga qiziquvchilar ham bor. Ular uchun maktablararo, tumanlararo amaliy san'at festivallari, tanlovlar tashkil qilinsa, yaxshi bo'lardi.

Gulnoza BOYXO'JAYEVA



Taklif

Nega savdo sohasi yetakchi mutaxassisi tayyorlanmayapti?

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar muomalasi yangi qirralar bilan boyib, savdo sohasi nihoyatda kengayib ketdi. Biroq mazkur soha amaliy jarayonlari bilan madaniy bozor tamoyillari o'rtasida ayrim ziddiyatlar ko'zga tashlana boshladi. Savdo do'konlari, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, kasbiy savodsizlik, yovvoyi raqobat usullari, standart va sertifikat talablariga javob bermaydigan hamda yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni sotish, yashirin nuqsoni chiqqan tovarlarni almashtirib bermaslik, iste'molchilarni mensimaslik va aldash, narxlarni asossiz ko'tarish, tovarlar bilan muomala qilish, ularni saqlash va savdo xizmat ko'rsatish tartib-qoidalarini bilmaslik holatlari iste'molchilarda boshqaruv organlariga nisbatan nosog'lom munosabat tug'ilishiga olib kelishi turgan gap. Bularning hammasi asosan savdo sohasining yuqori, o'rta va quyi bo'g'inlarida tegishli malaka darajasiga ega bo'lgan soha mutaxassislari emas, balki boshqalar o'tirib, o'zlari yaxshi bilmagan predmetlar bilan muomala jarayonini amalga oshirishga urinishlari oqibatidir.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 2026-yil boshida faoliyat yuritayotgan 474,9 ming korxona va tashkilotning 32,3 foizi savdo sohasiga to'g'ri keladi (umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari). Shunday katta ko'lamga ega bo'lgan soha uchun oliy va o'rta malakali yetakchi mutaxassislardan umuman tayyorlanmayotgani oqibatida savdo sohasi mutaxassislari taqchilligi bo'yicha iqtisodiyot sohalari orasida birinchi o'ringa chiqishi achinarli holat.

1935-yili Toshkentdan Samarqandga ko'chirilgan O'rta Osiyo rejalashtirish instituti O'zbekiston xalq

xo'jaligi institutiga aylantirilib, savdo-iqtisod fakultetida "Sanoat mollari tovarshunosligi" va "Oziq-ovqatlar tovarshunosligi" bo'limlari hamda "Tovarshunoslik" kafedrası tashkil etildi. Shundan boshlab oliy malakali, keyinchalik maxsus texnikumlarda o'rta malakali tovarshunoslar tayyorlab kelingan. Ammo mustaqillikka erishgach negadir uni tayyorlash to'xtatib qo'yildi. O'zbekiston bilan deyarli bir vaqtda mustaqil bo'lgan Rossiya, Belarus, Ukraina, Moldova, Qozog'iston, Tojikiston Respublikalarining tegishli oliy o'quv yurtlarida "Tovarshunoslik" bo'limlari saqlanib qolgan va uzluksiz ravishda tovarshunoslar tayyorlab kelinmoqda. Afsuski, bu sohada bizda uzoq yillar davomida to'plangan bebaho tajriba uloqtirilib, tovarshunos mutaxassislari ta'lim yo'nalishlari ro'yxatidan butunlay chiqarib tashlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, keyingi yillarda tayyorlana boshlagan "savdo ishi" mutaxassisi "tovarshunos" o'rmini bosa olmaydi. Chunki ularning kasbiy yo'nalishi va vazifalari jiddiy farq qiladi: "savdo ishi" mutaxassislari ijtimoiy-iqtisodiy (biznes va boshqaruv) yo'nalishlar turkumiga, "tovarshunos" esa texnik-texnologik yo'nalishlar turkumiga kiradi va shunga muvofiq ularni tayyorlash reja va dasturi shakllantirilgan. "Tovarshunos" tovar sifati va iste'mol qiymatini shakllantiruvchi fizikaviy, kimyoviy, biologik xossalari, tovarning sifat va foydalilik ko'rsatkich va darajalari, sifat va xavfsizlik standartlari, tovarlarni saqlash va tashish shart-sharoitlari, tovarlar harakati yo'llari, savdo va tayyorlov korxonalarida tovarlarni qabul qilish, saralash, saqlash talablari, tovarning tavsifi va tasnifi, tovarlarni turkumlash va assortiment konsepsiyasi, ulgurji va chakana savdo texnologiyalari, madaniy

savdo xizmat ko'rsatish tamoyillari, xaridorlar didlari, talab-istaklari va ularni to'liqroq qondirish mezonlari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, "savdo ishi" mutaxassisiga esa bu narsalar chuqur o'rgatilmaydi, uning kasbiy kompetensiyasi tovarga emas, asosan savdoni tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan.

Hozir ham respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ulgurji savdo bazalari, diler va logistik tashkilotlari, yirik chakana savdo majmua va korxonalari, meva-sabzavotlarni qabul qilish, tayyorlash, saqlash, jo'natish komplekslari, tovarlarni sertifikatlash va standartlash tashkilotlarining shtatlar jadvalida malakali tovarshunos, tovarshunos-ekspert lavozimlari nazarda tutilgan. Oldingi davrda savdo va umumiy ovqatlanish sohalarining hatto eng quyi bo'g'inlarida ham tegishli maxsus bilimga ega bo'lmagan kishilar ishga qo'yilmas edi. Bugungi kunda esa bunday lavozimlarda nomutaxassislardan o'tirib, ularning vazifalarini qay darajada bajarayotganliklarini ko'rib turibmiz.

Oliy malakali tovarshunoslar tayyorlashda hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida to'plangan qariyb bir asrlik tajriba butunlay yo'qolib ketmasdan, respublikada faqat shu ta'lim dargohida aynan tovarshunoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan noyob mutaxassislardan qolganlari yordamida mazkur tajribani qayta jonlantirib, qimmatli an'anani tiklab, tovarshunos bakalavr va magistr, maxsus texnikumlarda esa o'rta malakali tovarshunoslar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Halim HAMROYEV,
faxriy o'qituvchi

Ta'limda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun talabalarining bilimni boshqarish zarur

XX asrning 70-yillarida jamiyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi va buning natijasida ta'lim sohasida yangi vazifalarni shakllantirish, "kelajak odami" modelini yaratish, ta'lim sifatini oshirish zarurati paydo bo'ldi. Ta'lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa – oldindan rejalashtirilgan natijaga olib boradigan harakatlarning majburiy va izchil elementlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu boradagi ishlar o'rganilgandan so'ng, 1972-yili Tokioda UNESCO modul ta'lim tizimini umrbod ta'lim uchun eng mos keladigan model deb tavsiya qildi. Kredit ta'lim nazariyasi – bu pedosent-rizmning qutbli nazariyasi. Kredit ta'limni o'rganishda aniq dasturiy yondashuvga ega bilimlar, ayniqsa, individual so'rov bo'yicha moslashuvchanlik yaqindan yordam beradi. Biroq u ta'lim oluvchilarning alohida bilim va ko'nikmalar egallashni inkor etsa-da, ilmiy tushuncha, qonun va hodisalar tizimi haqida chuqur bilim beradi. Modulli ta'limning maqsadli jihati o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, yangi metodlarni ishlab chiqish, eng muhimi, talabalarining yuqori faollik va ongliklikka hissa qo'shadigan ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'limda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun talabalarining bilimni bosh-

qarish zarur. Shu bois, an'anaviy ta'limdan kredit ta'limga o'tish zarurati paydo bo'ldi. Kredit ta'limga o'tishda barcha olimlar kredit ta'lim paradigmasini qabul qilmadilar, ya'ni bunda talaba o'z-o'zidan o'rganishi, o'qituvchi esa boshqaruvni tashkil etishi va rag'batlantirishi kerak bo'ladi. An'anaviy pedagogika avtoritar bo'lgan va shunday bo'lib qoladi, uning maqsadi faqat beryoqlamalikdan iborat xolos. Bu ta'lim mazmunini taqdim etish usul, vosita va shakllari, uni o'zlashtirish va materialni o'rganish sur'ati o'rtasidagi nomuvofiqlikni yuzaga keltirib chiqardi. An'anaviy ta'lim ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish vazifasiga bo'ysunadi va reproduktiv tipdagi o'quv faoliyatiga asoslanadi. Modulli ta'limning asosiy vazifalaridan biri rivojlantiruvchi ta'lim bo'lsa, uning maqsadi o'quvchilarning ta'lim faoliyati subyekt sifatida rivojlanishini ta'minlash va quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishdan iborat:

- o'quv materialini mazmunini farqlash;
- ta'lim faoliyatini individuallashtirish;
- o'quvchilarning mustaqilligi, o'z oldiga maqsad qo'yish qobiliyati va natija uchun mas'uliyatni rivojlantirishni rag'batlantirish;



- talabalar bilimining reyting nazorati va baholashning samarali tizimini yaratish;

- kredit doirasida individual sur'atda o'rganish uchun sharoit yaratish.

So'nggi yillarda modulli ta'lim texnologiyasi jadal rivojlanib bordi. Bu o'quvchining o'quv ma'lumotlarini ongli ravishda idrok etishga tayyorligini shakllantirishga yordam beradi, uning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

Modulli ta'limning kelib chiqishi XX asrning 70-yillari boshiga to'g'ri keladi. Modulli ta'lim asoschilaridan biri J.Rassel modulni "o'quv material va o'quvchilar uchun belgilangan harakatlarning konseptual birligini o'z ichiga olgan ta'lim majmuasi" deb

ta'riflagan. B.Goldshmid va M.Goldshmidlarning fikricha, "modul – o'quvchiga aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yordam berish uchun mo'ljallangan, oldindan rejalashtirilgan miqdordagi ta'lim faoliyati turlaridagi avtonom, mustaqil birlikdir". G.Ouens modul haqida "o'qituvchi, o'quvchilar, o'quv material hamda o'quvchi va o'qituvchiga individual yondashuvni amalga oshirishga, ularning o'zaro ta'sirini ta'minlashga yordam beruvchi vositalarni o'z ichiga olgan o'quv yopiq kompleksi" degan fikrni ilgari suradi.

Nilufar OTAYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Xorijiy tillarni o'qitish" kafedrası
dotsenti, (PhD)

Maxsus ta'lim

INKLYUZIV TA'LIM:

kadrlar yetishmovchiligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda



O'zbekistonda nogironligi bo'lgan va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar an'anaviy ravishda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda yoki uyda ta'lim olgan. Bunday model tibbiy ko'rsatkichlarni inobatga olish imkonini bergan bo'lsa-da, ko'pincha bolaning ijtimoiy izolyatsiyasiga olib kelgan, muloqot doirasini cheklagan va jamiyatga keyingi integratsiya imkoniyatlarini pasaytirgan. Zamonaviy yondashuv esa mutlaqo boshqa falsafani nazarda tutadi: bola tizimga moslashishi emas, balki tizim har bir o'quvchining individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashishi kerak. Aynan shu yondashuv inklyuziv ta'limning asosini tashkil etadi, bunda tenglik, ochiqlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish asosiy tamoyillar hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional baza shakllantirildi. Davlat dasturlari alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning maktabgacha, umumiy o'rta va kasbiy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda, chunki aynan maktabgacha yosh rivojlanish va korreksiya uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Ayrim hududlarda pilot loyihalar amalga oshirilmoqda, inklyuziv sinflar joriy etilmoqda, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishda bir qator jiddiy muammolarga duch kelinmoqda. Asosiy muammolardan biri kadrlar yetishmovchiligi bo'lib qolmoqda. Inklyuziv muhitda ishlash o'qituvchidan nafaqat professional bilim, balki maxsus ko'nikmalar, psixologik barqarorlik va individual yondashuvga tayyorlikni ham talab qiladi. O'qituvchilar turli shakldagi nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashni, psixolog, logoped, defektologlar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishni bilishlari kerak. Amaliyotda esa ko'plab pedagoglar inklyuziv sinflarda ishlash uchun yetarli tayyorgarlikdan o'tmagani tan oladilar. Malaka oshirish kurslari hali barcha ehtiyojmandlarni qamrab olmayapti, qishloq maktablarida esa tor soha mutaxassislari ko'pincha umuman mavjud emas.

Moddiy-texnik ta'minot masalasi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Inklyuziv ta'lim moslashtirilgan muhit bo'lmasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Pandus, lift, maxsus sanitariya xonalar, moslashtirilgan o'quv materiallari va assistiv texnologiyalar katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shahar joylarda vaziyat asta-sekin yaxshilanmoqda: yangi maktablar universal dizayn tamoyillarini hisobga olgan holda loyihalanmoqda, mavjud binolar modernizatsiya qilinmoqda. Biroq chekka hududlar va kichik aholi punktlarida ko'plab maktablar hali ham nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitishga moslashtirilmagan. Bu ta'limga kirish imkoniyatlarida tengsizlikni yuzaga keltiradi va oilalarni uyda ta'lim olish yoki ko'chib o'tish kabi muqobil yechimlarni izlashga majbur qiladi.

Inklyuziyaning ijtimoiy-psixologik jihati ham alohida e'tiborga loyiq. Jamiyat fikri asta-sekin o'zgarayotganiga qaramay, hali ham alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning umumta'lim maktablarida o'qishi bilan bog'liq stereotiplar va xavotirlar saqlanib qolmoqda. Ba'zi ota-onalar inklyuziv ta'lim sinfdagi umumiy bilim darajasini pasaytirishi yoki o'qituvchilarga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishidan xavotirlanadilar. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan bolalar oilalari ko'pincha ishonchsizlik, axborot yetishmasligi va kamsitilish qo'rquviga duch keladilar. Bu to'siqlarni faqat ma'muriy choralar bilan bartaraf etib bo'lmaydi – tizimli tushuntirish ishlari, ochiq muloqot va inklyuziv amaliyotning muvaffaqiyatli misollarini namoyish etish zarur.

Mavjud muammolarga qaramay, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha ijobiy tajribalar ham mavjud. Ayrim maktablarda individual ta'lim rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, raqamli texnologiyalar va moslashtirilgan o'quv dasturlari qo'llanilmoqda, maktab psixologlari va o'qituvchi yordamchilari faoliyat yuritmoqda. Ko'plab pedagoglar inklyuziya nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishiga, balki barcha o'quvchilarda hamdardlik, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlamokda. Turli xil muhitda ta'lim olish bolalar bir-birini yaxshiroq tushunishi va farqlarni hayotning tabiiy qismi sifatida qabul qilishiga yordam beradi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamkorlar muhim rol o'ynaydi. Ular mutaxassislar tayyorlash, metodik materiallar ishlab chiqish va axborot kampaniyalarini o'tkazishda ko'maklashadilar. Qo'shma loyihalar zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va inklyuziyaning rivojlantirishiga qiziqqan professional hamjamiyatni kengaytirishga xizmat qiladi. Asta-sekin inklyuziv ta'lim bir martalik tashabbus emas, balki barqaror moliyalashtirish, idoralararo hamkorlik va siyosiy irodani talab qiluvchi uzoq muddatli jarayon ekanligi anglab yetilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish kompleks xarakterga ega bo'lishi lozim. Pedagog kadrlarni tizimli tayyorlash,



ayniqsa hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, oilalarga psixologik va ijtimoiy yordamni kuchaytirish hamda jamiyat darajasida inklyuziv madaniyatni shakllantirish zarur. Inklyuziya ta'lim tizimi uchun qo'shimcha yuk emas, balki mamlakatning inson kapitaliga kiritgan investitsiyasi sifatida qabul qilinishi muhim.

Inklyuziv ta'lim – bu faqat maktab va o'quv dasturlari haqida emas. Bu har bir inson o'z xususiyatlaridan qat'i nazar, o'zini jamiyatda zarur va muhim deb his qiladigan kelajak haqidadir. Bugun birga o'qiyotgan bolalar ertaga birga ishlaydi, qarorlar qabul qiladi va mamlakat qiyofasini belgilaydi. Ta'limda teng imkoniyatlar tizimini yaratish orqali O'zbekiston barqaror ijtimoiy rivojlanish va jamiyat birligini mustahkamlash uchun mustahkam poydevor qo'ymoqda. Inklyuziv ta'limning chuqur mazmuni va strategik ahamiyati aynan shunda namoyon bo'ladi.

Inklyuziv ta'limning muhim, ammo hozircha yetarli darajada rivojlanmagan jihatlaridan biri – bolaning ta'limning barcha bosqichlarida qo'llab-quvvatlanishi tizimidir. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun maktabgacha ta'lim, maktab va keyingi kasbiy ta'lim o'rtasidagi uzviylik ayniqsa muhimdir. Amaliyotda esa bir bosqichdan boshqasiga o'tish ko'pincha individual yondashuvning yo'qolishi, mutaxassislar almashishi va bolaning ehtiyojlarini kompleks baholashning mavjud emasligi bilan kechadi. Bu esa o'quvchilar va ularning oilalari uchun qo'shimcha stressli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Inklyuziv muhitda o'quv yutuqlarini baholash masalasi ham alohida e'tibor talab qiladi. An'anaviy bilimni nazorat qilish shakllari har doim ham alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolaning real yutuqlarini aks ettira olmaydi. Bunday sharoitda yakuniy natijadan ko'ra individual taraqqiyotga yo'naltirilgan moslashuvchan baholash shakllarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv o'qishga bo'lgan motivatsiyani saqlab qolish va bolaning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omilni ham hisobga olish zarur. Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan ko'plab

oilalar uchun rehabilitatsiya, davolanish va maxsus o'quv vositalariga sarflanadigan qo'shimcha xarajatlar jiddiy moliyaviy yuk bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktab nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi funksiyani ham bajarishi, ijtimoiy himoya organlari, tibbiyot muassasalari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilishi lozim. Kompleks yondashuv oilalarga tushadigan yukni kamaytirish va inklyuziv modelning barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda boshqaruv kadrlarini tayyorlash ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalari rahbarlari nafaqat ma'muriy ko'nikmalarga, balki inklyuziya tamoyillarini tushunish, jamoaviy ishni yo'lga qo'yish va resurslarni samarali taqsimlash qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur.

O'zbekiston sharoitida mahalliy hamjamiyatlar va mahallalar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Aynan jamiyat darajasida alohida ehtiyojlarga ega bolalarga nisbatan dastlabki munosabat shakllanadi. Mahalla tomonidan qo'llab-quvvatlash, jamoat faollari ishtiroki va ota-onalar bilan hamkorlik inklyuziv ta'limni ijtimoiy hayotning tabiiy va zarur qismi sifatida qabul qilishga ko'maklashadi.

Inklyuziv madaniyatni shakllantirishda bolalarning o'zi ham muhim rol o'ynaydi. Hurmat va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti o'quvchilarda hamdardlik, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu sifatlarni darsliklar yoki buyruqlar orqali shakllantirib bo'lmaydi, balki ular kundalik muloqot, birgalikdagi faoliyat va farqlarni qabul qilish jarayonida paydo bo'ladi.

To'siqlarsiz ta'lim tizimini yaratish yakuniy maqsad emas, balki uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda har bir maktab, har bir o'qituvchi va har bir oila o'z roliga ega. Inklyuziya qiyinchiliklarni inkor etmaydi, biroq yanada adolatli va insonparvar kelajak uchun imkoniyat yaratadi. Aynan shu imkoniyat inklyuziv ta'limni XXI asrda O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Shahnoza XOLMATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti



Qadriyat

Islom sivilizatsiyasi markazi:

TARIXIY XOTIRA VA MA'RIFIY UYG'ONISH TIMSOLI

S o'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar orasida milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni tiklash va uni jahon miqyosida targ'ib etish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu boradagi eng yirik va ramziy loyihalardan biri – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hisoblanadi. Mazkur markaz nafaqat me'moriy jihatdan ulkan majmua, balki xalqimizning ko'p asrlik ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini mujassam etgan noyob maskandir.

Mazkur markazni barpo etish tashabbusi ilk bor Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbus zamirida islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ochib berish, uni noto'g'ri talqin qilayotgan kuchlarga qarshi ma'rifat bilan javob berish g'oyasi yotadi. Bu jihatdan markaz – faqat tarixni namoyish etuvchi muzey emas, balki global miqyosda g'oyaviy va ma'naviy dialog platformasidir. Islom sivilizatsiyasi markazi o'zining mahobati, maydoni va qamroviga ko'ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biri hisoblanadi.

Markazning Hazrati Imom majmuasi hududida barpo etilgani bejiz emas. Bu joy tarixan islom ilmi va ma'rifatining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Majmuaning ulkan o'lchamlari, gumbazining balandligi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan sharqona me'morchiligi uning nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki ichki mazmuniga ham chuqur ma'no bag'ishlaydi. Ayniqsa, Qur'oni karim zalining "ma'naviy yurak" sifatida talqin etilishi markazning konseptual asosini yaqqol ifodalaydi. Bu yerda qadimiy qo'lyozmalar, xususan, Usmon Mus'hafi va turli davrlarga oid Qur'on nusxalarining jamlangani islom madaniyatining uzluksiz rivojlanish tarixini ko'rsatadi.

Markaz binosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

me'moriy g'oya va takliflari asosida loyihalashtirilgan. Bunyod etish jarayonida davlatimiz rahbari ushbu majmuaga bir necha bor tashrif buyurib, uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo'lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini ulashdi. Xususan, 2025-yilning o'zida Prezidentimiz markazga bir necha marta kelib, ekspozitsiyalar, infratuzilma, ma'rifiy va ilmiy yo'nalishlarni takomillashtirish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berdi.

Markaz qadimiy va milliy me'morchilik an'analari asosida qurilgan bo'lib, unga to'rt tomondan – to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravoqlari ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi Qur'on oyatlari hamda hadislar bilan bezatilgan.

Markazning eng muhim jihatlaridan biri – uning ilmiy va ta'limiy funksiyasidir. Bu yerda zamonaviy laboratoriyalar, raqamlashtirish tizimlari, xalqaro standartlarga mos ekspozitsiyalar joriy etilgan. Ekspонатlarining QR-kodlar orqali bir nechta tilda taqdim etilishi, audiogidlar va raqamli platformalar orqali keng jamoatchilikka yetkazilishi zamonaviy muzey amaliyotining yorqin namunasi hisoblanadi.

Markaz faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi – tarixiy artefaktlarni Vatanga qaytarishdir. Xorijiy auksionlar, xususi kolleksiyalar va xalqimiz tomonidan taqdim etilgan nodir buyumlar orqali fondning boyib borayotgani milliy merosga bo'lgan yuksak e'tibor ifodasidir. Bu jarayon nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki yosh avlodni o'z ildizlariga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ma'naviy dunyosini boyitish, tarixiy ongini shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu markaz

nafaqat tarixiy-madaniy majmua, balki o'zida ilm, ma'rifat va innovatsion yondashuvlarni mujassam etgan noyob ta'lim makonidir. Mazkur markazni an'anaviy muzey sifatida emas, balki "tirik bilim makoni" sifatida baholash mumkin. Chunki bu yerda bilimlar oddiy nazariy shaklda emas, balki real eksponatlar, qadimiy qo'lyozmalar, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv vositalar orqali yetkaziladi. Bunday yondashuv o'quvchilarga tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash, o'tmishni his qilish va uni bugungi kun bilan bog'lash imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu jarayon o'qish va o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Markazning ta'limdagi eng muhim jihatlaridan biri – yosh avlodga tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qilishidir. Bu yerda ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosi tizimli ravishda namoyish etilgan bo'lib, u yoshlarni o'z ildizlarini anglashga undaydi. Xususan, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalarning ilmiy merosi bilan bevosita tanishish o'quvchilarda ilmga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularda katta maqsadlar sari intilish hissi-ni uyg'otadi.

Bundan tashqari, markaz ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu yerda tarix, dinshunoslik, san'atshunoslik, arxeologiya va axborot texnologiyalari o'zaro uyg'unlashgan holda o'rganiladi. Masalan, bitta qo'lyozmani tadqiq qilish jarayonida talabalar uning tarixiy davrini aniqlaydi, matn mazmunini tahlil qiladi, yozuv uslubini o'rganadi hamda uni zamonaviy texnologiyalar orqali raqamlashtirish jarayonida ishtirok etadi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda kompleks fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, markaz ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim platforma vazifasini bajaradi. Bu yerda yaratilgan kutubxona, laboratoriyalar va xalqaro hamkorlik aloqalari ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, Oksford islom

tadqiqotlari markazi kabi nufuzli ilmiy muassasalar bilan hamkorlik talabalar va olimlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, ularni global ilmiy maydonga olib chiqadi.

Ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya ham muhim o'rin tutadi. Markazda targ'ib etilayotgan bag'rikenglik, tinchlik, insonparvarlik va ilmga intilish kabi g'oyalar yoshlarning axloqiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ularni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega.

Markaz ochilishining Ramazon oyi bilan uyg'un holda o'tkazilgani ham ramziy ahamiyatga ega. Bu voqea jamiyatda mehr-oqibat, bag'rikenglik va birlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Prezident ta'kidlaganidek, ushbu maskan yoshlar uchun milliy g'urur va o'zlikni anglash maktabiga aylanishi zarur. Bu yerda yaratilgan sharoitlar kelajakda yangi ilm-fan namoyandalarini yetishtirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

– *Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin! Yangi O'zbekistonni tinchlik, ezigulik, bilim va ma'rifat diyori sifatida olamga tarannum etsin! Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g'urur maktabiga aylansin!* – dedi Prezidentimiz.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi – bu oddiy me'moriy inshoot emas, balki xalqimizning tarixiy xotirasi, ma'naviy kuchi va kelajakka bo'lgan ishonchining timsolidir. Mazkur markaz orqali O'zbekiston o'zining boy tarixiy va madaniy merosini nafaqat asrab-avaylaydi, balki uni butun dunyoga namoyon etib, global sivilizatsiyalar muloqotida faol ishtirok etayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi

Munosabat

“BUGUNGI TALAB

kechagi yondashuvlar bilan cheklanib qolmasligi kerak!”

Joriy yilning 18-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Narpay tumanida o'tkazilgan yig'ilishda Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir belgilab berilgan ustuvor vazifalar Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy-ma'rifiy asoslarini ham yaqqol namoyon etdi. Unda Prezident so'zlagan nutq mazmunini tahlil qilar ekanmiz, undagi har bir g'oya va tashabbus bevosita ta'lim tizimi bilan ham uzviy bog'liqligini ko'ramiz.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan “Bugungi talab kechagi yondashuvlar bilan cheklanib qolmasligi kerak!” degan tamoyil biz, ta'lim sohasi vakillarini jiddiy o'ylantiradi. Chunki bugun faqat nazariy bilim berish yetarli emas, balki uni

amaliyotga tatbiq eta oladigan, zamon talablariga moslashuvchan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash asosiy vazifamizga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tan olishimiz kerakki, ayrim hollarda ta'lim jarayonida konservativ yondashuvlar saqlanib qolmoqda va bu belgilangan yuksak marralarga erishishda to'siq bo'lishi mumkin.

Yig'ilishda sun'iy intellekt asosida hududlar salohiyatini tahlil qilish, inson kapitalini baholash va rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berildi. Bu yondashuv ham ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. O'z sohamiz doirasida, balki fanlararo integratsiyani kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish orqali zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashimiz zarur. Shu bilan birga, faoliyatimizga tanqidiy yondashishimiz lozim. Biz tayyorlayotgan

kadrlar hududiy rivojlanish ehtiyojlariga qanchalik mos? Ular real iqtisodiy jarayonlarda qanchalik samarali ishtirok etmoqda? Bu savollar har birimizni o'ylantirishi kerak.

Yig'ilishda ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka keng jalb etish masalalari alohida qayd etildi. Bu esa ta'lim tizimining ijtimoiy mas'uliyatini yanada oshiradi. Fikrimizcha, har bir oliy ta'lim muassasasi o'z hududining intellektual va innovatsion markaziga aylanishi zarur. Ya'ni ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki hududiy rivojlanishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiquvchi tizim bo'lishi kerak.

Nutqda Samarqandni xalqaro ilmiy konferensiyalar, olimpiada va forumlar markaziga aylantirish tashabbusi ilgari surilgani biz uchun alohida ahamiyatga ega. Biz buni ilm-fan va ta'lim sohasiga bildiril-

gan yuksak ishonch sifatida qabul qilamiz. Ayniqsa, filologiya yo'nalishi vakillari sifatida milliy til va madaniyatimizni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, uni zamonaviy ilmiy talqinlarda namoyon etish muhim vazifamizdir.

Ayni paytda Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatining yo'lga qo'yilishi hamda Imom Buxoriy merosining ulug'lanishi ta'limning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yanada mustahkamlaydi. Bu jarayon yosh avlodni milliy o'zlik, tarixiy xotira va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, ushbu yig'ilishda ilgari surilgan g'oyalar bizni, ta'lim sohasi vakillarini o'z faoliyatimizni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Endilikda bizdan yangicha tafakkur, innovatsion yondashuv va yuqori mas'uliyat talab etiladi. Agar biz ta'lim tizimini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan uyg'unlashtira olsak, belgilangan ulkan maqsadlarga erishishimiz mumkin. Shu jihatdan, mazkur nutqni biz nafaqat siyosiy hujjat, balki ta'lim tizimi uchun muhim strategik yo'l xaritasi sifatida baholaymiz.

Ozoda ANORQULOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori



Jurnalistsurishtiruvi

MULKDORLAR KIM ASLIDA?



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida "Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari, shuningdek sud qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas", deya aniq qilib ko'rsatilgan. Xo'sh, bosh Qomusimizda qayd etilgan bunday konstitutsiyaviy kafolat amalda qanday ishlamoqda? Sudlar tomonidan mulk huquqi himoyasi qanchalik samarali bo'lmoqda?

Tahririyatimizga o'z mehnati va bilimi bilan jamiyat rivojiga hissa qo'shayotgan o'qituvchi ayol oilasi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-huquqiy masala yuzasidan yordam va adolat tiklanishida ko'mak so'rab murojaat qildi. Go'zal Azimova Sergeli tumanidagi 277-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida sakkiz yildan beri boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Biroq uning hayotida so'ngi yillarda kechayotgan voqealar tahlili ikki nafar voyaga yetmagan farzandi bor ayolning huquqlari amalda qay darajada himoyalalanayotgani haqida og'ir savollarni o'rta qo'yadi.

Go'zal 2014-yili Fazliddin Azimov bilan qonuniy nikohdan o'tadi. Shundan so'ng ikki nafar qiz dunyoga keladi. Ammo oiladagi doimiy janjallar, turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik, kaltaklash holatlari ayol salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Hatto, uning vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishiga, qosh usti miya kosasi lat yeyishiga olib keladi. Oxir-oqibat ular o'rta-sidagi nikoh 2022-yilda sud qarori bilan bekor qilinadi.

E'tiborli jihati shundaki, Fazliddin Azimov ichki ishlar idoralarida ishlagan sababli ushbu oilaga davlat tomonidan ipoteka krediti orqali uch xonali uy-joy ajratilgan edi. Ma'lumki, mazkur xonadon uning oilasi – ona va ikki nafar voyaga yetmagan farzand manfaatlarini inobatga olingan holda berilgan.

2024-yil 18-mart kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudi ushbu xonadonni Go'zal Azimova va Fazliddin Azimovning teng ulushdagi umumiy mulki deb topdi hamda ona va bolalarni uyga kiritishni belgilab berdi.

Uydan chiqarib yuborilgan ona-bolalar

Biroq sud qarori qonuniy kuchga kirganiga qaramay, Go'zal Azimova va uning farzandlari amalda mazkur uyda yashash imkoniyatiga ega bo'lmadi. Hatto MIB xodimlari tomonidan uning ikki nafar farzandi nizoli xonadonga kiritilgan bo'lsa-da, sobiq turmush o'rtog'i ushbu xonadonga o'z opasi Ziyoda Parpiyeva va uning oila a'zolarini sobiq turmush o'rtog'i Go'zal Azimova(ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari)ning roziligisiz joylashtirib, yashash xonalarini to'liq band qildi. MIB xodimlari ketganidan so'ng esa ona va bolalar uydan chiqarib yuborildi.

Bu holat Go'zal Azimovani takroran sudga murojaat etishga majbur qildi. U da'vo arizasida uy-joydan foydalanish tartibini belgilash hamda noqonuniy

ravishda yashab kelayotgan shaxslarni ko'chirish masalalarini qo'ydi. So-biq turmush o'rtog'ining opasi Ziyoda Parpiyeva ushbu nizoli xonadon bilan hech qanday mulkiy aloqasi yo'qligiga qaramasdan u ham sudga uy-joydan foydalanish huquqini belgilash to'g'risidagi qarshi da'vo arizasini kiritdi.

Qonun bor, adolat-chi?

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining 2025-yil 4-dekabrda chiqarilgan hal qiluv qarori bilan da'vogar Go'zal Azimovning yuqorida aytib o'tilgan da'vo-si hamda javobgar Ziyoda Parpiyevaning qarshi da'vo arizasi ham qanoatlan-tirilmagan rad etildi. Holbuki, Fuqarolik kodeksining 219-moddasiga ko'ra, "Ulushli mulkdagi umumiy mol-mulka egalik qilish va undan foydalanish uning barcha ishtirokchilari kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, ulushli mulkdagi umumiy mol-mulka egalik qilish undan foydalanish sud tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi", deb aniq ko'rsatilgan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikka ko'ra, uy-joyga doimiy ro'yxatga qo'yish uchun barcha mulkdorlarning roziligi talab etiladi. Go'zal Azimova esa sobiq turmush o'rtog'ining opasi Ziyoda Parpiyevaning ushbu xonadonga ro'yxatga qo'yilishiga rozilik bermagan. Bundan tashqari, bu bilan ikki nafar voyaga yetmagan bolaning turarjoy huquqlari ochiqdan ochiq poymol qilingan.

Ochiq sud majlisidagi yopiqlik

Eng xavotirli holatlardan biri shu bo'ldiki, ushbu masala yuzasidan Mirobod tumanlararo sudi binosida o'tkazilgan sud majlislarida jabrlanuvchi murojaat qilgan "Ma'rifat" gazetasi muxbiri ochiq sud jarayonida kuzatuvchi sifatida ishtirok etolmadi. Sababi, sud majlis-lari ochiq deb e'lon qilingani va jurnalist buning uchun barcha zarur hujjatlarga ega bo'lganiga qaramay, sudya G.Ernazarova turli bahonalar keltirib, sud zalini tark etishga majbur qildi.

Go'zal Azimovning tahririyatimizga yo'llagan murojaati yuzasidan olib borilayotgan jurnalistik surishtiruv doirasida jurnalistning sud jarayonini kuzatishiga yo'l qo'yilmasligi (2025-yil 23-oktabr, 2025-yil 4-dekabr kunlari) jamoatchilik o'rtasida turli savollarni tug'dirdi. Axir bunday amaliyot protses-sual qonunchilik talablari, shuningdek, sud ochiq-ligi va jamoatchilik nazorati prinsiplariga ham zid hisoblanadi.

Ochiq sud majlisida jurnalistning bir necha bor sud zalidan chiqarib yuboril-gani jamoatchilik orasida "Sud kimdan va nimadan qo'rqdi?" degan savollarni yuzaga keltirdi. O'qituvchi – jamiyatning ong-li vakili. Ikki nafar voyaga yetmagan bolani tarbiyalayotgan, davlat makta-bida halol mehnat qilayotgan pedagog ayolning uy-joyi, xavfsizligi hamda in-son qadr-qimmatiga oid huquqlari bilan bog'liq masalalar muhokama qilinayot-gan bir paytda, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining bu jarayonga be-farq bo'lmasligi tabiiy holatdir. Mazkur vaziyatda sud jarayonining ochiq-ligi va shaffofligi masalalariga yanada kengroq e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sud ishi orqali nafaqat mulk-dor huquqlari, balki voyaga yetmagan bolalarning manfaat-lari, adolat tamoyili hamda qonun ustuvorligining amalda qay darajada ta'minlanayotgani masalasi ham alohida mavzu.

Apellyatsiya instansiyasi va qisman tiklangan qonun

Go'zal Azimova tomonidan berilgan apellyatsiya shikoyati Toshkent sha-har sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqil-di. Ish ochiq sud majlisida muhokama qilinib, O'zbekiston ziyolilarining bosh nashri hisoblangan "Ma'rifat" gazeta-si jurnalistiga tinglovchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etish imkoniyati yaratil-di. Sudlov hay'ati tomonidan 2026-yil 28-yanvarda chiqarilgan ajrimga ko'ra, birinchi instansiya sudining 2025-yil 4-dekabrda hal qiluv qarori qisman be-kor qilindi.

Apellyatsiya hay'ati ish materiallari-ni qayta tahlil qilib, ulushli mulkka oid huquqiy munosabatlarga to'g'ri huquqiy baho berilmaganini qayd etdi. Sud Fuqa-rolik kodeksining 219-moddasi talab-lariga tayanilgan holda, ulushli mulk ishtirokchilari o'rtasida kelishuv mavjud bo'lmagan sharoitda foydalanish tartibi sud tomonidan belgilanishi shartligini ta'kid-ladi. Natijada apellyatsiya instan-siyasi Go'zal Azimovning uy-joydan foydalanish tartibini belgilash to'g'risi-dagi da'vo talablarini qanoatlantirib, nizoli xonadon bo'yicha aniq foydala-nish tartibini belgiladi. Qarorga ko'ra, uyning 27,97 kv m maydonli yashash xonasi Go'zal Azimova va uning voya-ga yetmagan ikki nafar farzandlariga, 18,14 k,m maydonli yashash xonasi Fazliddin Azimovga, 15,04 kv m may-donli xona esa Ziyoda Parpiyevaga foydalanish uchun ajratildi. Dahliz, oshxona, hammom, hojatxona va bosh-qa umumiy joylar esa umumiy foyda-lanishda qoldirildi.

Mulkdor kim?

Biroq baribir asosiy savol ochiq qol-di: nima uchun Ziyoda Parpiyeva ushbu nizoli kvartirada foydalanuvchi sifati-da qayd etildi? Axir fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2024-yil 18-martdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, Toshkent shahri, Yashnobod tuma-

ni, Ahmad Yassaviy MFY, Xovos 2-tor ko'chasi, 1/17-uy, 16-xonadon Azimova Go'zal Akramovna va Azimov Fazliddin Faxritdinovichlarning teng – 1/2 ulushda-gi umumiy mulki deb topilgan edi-ku? Shundan so'ng, nega 2024-yil 8-iyun kuni Ziyoda Parpiyeva ushbu manzil bo'yicha doimiy ro'yxatga qo'yiladi?

Ammo uy-joy ulushli mulk hisoblan-gan sharoitda, amaldagi qonunchilikka muvofiq, turarjoyga doimiy ro'yxat-dan o'tkazish uchun barcha mulk-dorlarning roziligi talab etiladi. Bu talab O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi qonuni ham-da ushbu sohadagi amaldagi me'yoriy hujjatlarda aniq belgilangan-ku! Xusu-san, amaldagi tartiblarga ko'ra, shaxsni ro'yxatga qo'yish uchun turarjoy mulk-dorining (yoki mulkdorlarining) roziligi talab etilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, nega ushbu talab vakolatli organ tomoni-dan buzildi?

Go'zal Azimova bunday rozilikni ham shaxsan, ham notarial tarzda ber-magan. Demak, Ziyoda Parpiyeva-ni 2024-yil 8-iyun kuni doimiy ro'y-xatga qo'yilishi ikkinchi mulkdorning huquqlari buzilganligini ko'rsatib turib-di.

Mazkur holat yuzasidan Yashno-bod tumani ichki ishlar organlari faoli-yatini muvofiqlashtirish boshqarmasi migratsiya va fuqarolikni rasmiylash-tirish bo'limiga murojaat qilinib, Ziyoda Parpiyevani ro'yxatdan o'chirish so'raldi. Biroq vakolatli organ 2025-yil 30-dekabrda javob xati bilan uning doimiy ro'yxatga qo'yilishi mulkdor-lardan biri tomonidan berilgan rozilik asosida amalga oshirilganini bildi-rib, ro'yxatdan o'chirishni rad etgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqa-rolik kodeksining 219-moddasi talabi-ga ochiqdan ochiq rioya etilmayapti. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 21-moddasi va Fuqarolik kodeksi-ni 9-moddasiga muvofiq, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquq va qonuniy man-faatlarini buzmasligi shart. Mulkdor-lik huquqidan boshqa mulkdorning huquqlariga zarar yetkazish tarzida foy-dalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Aynan shu huquqiy asoslarga tayan-gan holda, mazkur masala yuzasidan Go'zal Azimova tomonidan Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga Toshkent shahar Yashnobod tumani II OF MB Migratsiya va fuqarolarni rasmiylash-tirish bo'limi mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari yuzasi-dan ariza kiritildi. Umid qilamizki, sud tomonidan chiqariladigan adolatli qaror Go'zal Azimovning mulkdor sifatidagi qonuniy huquqlarini to'liq himoya qila-di.

Ma'murjon QIYOMOV,
"Ma'rifat" gazetasi muxbiri,
Dilbar UMAROVA,
"Nodir Ishonch" advokaturasi
advokati

Sinab ko‘ring

TEXNOLOGIYA FANIDA FOYDALANILADIGAN YANGI METODLAR

“Xotirani sinovdan o‘tkazish” metodi

Sinfdagi o‘quvchilarga yubka modellari rasmi bir daqiqa davomida ko‘rsatiladi va olib qo‘yiladi. So‘ngra o‘quvchilardan eslab qolgan yubka modellarning eskizlarini daftariga chizishlari so‘raladi. Har bir o‘quvchi xotirasida saqlanib qolgan eskizni daftariga chizadi. Kim ko‘p eskiz chizsa, shu o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.



“Raqamlar va harflar” metodi


Bu metod ayollar milliy ko‘ylagini loyihalash, farkuk loyihalash va boshqa bir qancha mavzularga mos keladi.

* O‘lchovlar asosida to‘g‘ri bichimli yubka konstruksiyasi, ya‘ni loyiha chizmasi tayyorlanadi.

* O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga yubkaning old tomoni, ikkinchi guruhga esa orqa tomoni loyiha chizmasi chizilgan qog‘oz tarqatiladi.

* O‘quvchilar masshtab-koordinatali qog‘ozdagi chizmadan loyiha chizmasining 1-o‘lchamini o‘lchaydilar. So‘ng masshtabga muvofiq 2-o‘lchamni aniqlab, o‘lcham belgilanishini harflar bilan to‘g‘ri yozib chiqishlari kerak.

* Uzunlik, kenglik, aylana o‘lchamlarini alohida yozib, har bir guruhdan bir o‘quvchi doskada guruhda bajargan ishlarini taqdimot qiladi. Ishning kamchiligini boshqa o‘quvchilar to‘ldiradi. Xulosani boshqa guruhdagi o‘quvchilar chiqaradi. Ma‘lumot ko‘pligi va ma‘no jihatiga qarab ishlar baholanadi. G‘olib guruh rag‘batlantiriladi.



“Eskiz fasonni o‘zgartirish” metodi

“Ayollar to‘g‘ri bichimli yubkasi” loyiha chizmasi berilgan rangli qog‘ozlardan foydalangan holda tayyorlanadi. Shu loyiha chizmasi asosida bir nechta turli xil fasondagi yubkalarni modellashtirib, o‘quvchilarga namuna ko‘rsatib beriladi. O‘quvchilar o‘zlarining fantaziya-sidan kelib chiqqan holda, yangi modalar asosida eskiz chizmalarini yaratib, modellashtiradilar. Ularga yordam tariqasida texnologik xarita tarqatiladi. Shu xarita asosida o‘zlari ish ketma-ketligini bajarishni tushunib oladilar.

“O‘lchov nomini eskiz raqamiga moslashtirish” metodi

Bu metod barcha turdagi kiyimlar loyihasi, o‘lchov

olish mavzulariga mos. Masalan, to‘g‘ri bichimli yubka uchun kerakli o‘lchov va belgilar raqamlar asosida ko‘rsatilgan, faqat o‘quvchi qaysi raqam ostida qanday o‘lchov yashiringanligini va belgilanishini topib, moslashtirishi kerak bo‘ladi. Turli xildagi yubka, to‘g‘ri bichimli ko‘ylak, shim va ayollar bluzkasidan o‘lchov olish kabi mavzularda bu metod samarali hisoblanadi. “Jadvaldagi raqamni toping” degan joyini o‘quvchilar to‘ldiradi.

Javob:

Jadvaldagi kiyim uzunligi – KU 2-eskizga tegishli o‘lchov.

Bel aylanasi yarim aylana – BLAYA 3-eskizga tegishli o‘lchov.

Bo‘ksa aylanasi yarim aylana – BKAYA 1-eskizga tegishli o‘lchov.

No	O‘lchov nomi va belgisi	Raqamni toping	O‘lchov olish
1	Kiyim uzunligi – KU		
2	Bel aylanasi yarim – BLAYA		
3	Bo‘ksa aylanasi yarim – BKAYA		

Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni toping

1. Quyosh va konussimon yubkalar aylana va shaklida bichiladi.
2. KU belgisi – kiyim deyiladi.
3. Yubka gazlamaniipi yo‘nalishida bichiladi.
4. Yubkalarni bezakli baxyaqator, tasma, tugmacha, va hokazolar bilan bezash mumkin.
5. Gazlama ustiga joylashtirib bichiladi.

Javoblar: 1. Yarim aylana. 2. Uzunligi. 3. Bo‘ylama. 4. Kashta. 5. Andoza.

“Jadvalli ketma-ketlikni tabaqalashtirish” metodi

Bu metod orqali o‘quvchilarda tizimli mushohada qilish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. O‘quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi yoki yakka tartibda bajarsa ham bo‘ladi. Ularga vazifa beriladi va bajarish tartibi tushuntiriladi. Guruhlarga qog‘oz va markerlar beriladi. Belgilangan muddatgacha berilgan vazifani qog‘ozlarga yozishadi. O‘qituvchi javoblarni toifalash uchun har bir guruhga bittadan vatman qog‘ozi beradi. Kichik guruhlar bajargan vazifalarini o‘zlari ishlab chiqqan, ya‘ni ajratgan toifalariga qarab vatmanga yopishtiriladi. Kichik guruhlar taqdimot va muhokama qiladi. Eng ko‘p toifaga to‘g‘ri ajratgan guruh g‘olib deb topiladi.

Masalan, quyidagi so‘zlarni toifaga ajratadilar.

1. Islimiy.
2. Duxoba.
3. Angishvona.
4. Surp.
5. Korcho‘b.
6. Zamindo‘zi.
7. Gireh.
8. Igna.
9. Guldo‘zi.
10. Bo‘z.
11. Tuyabo‘yin qaychi.
12. Ramziy.
13. Xitoy qog‘ozi (kalka).
14. Velyur.

Naqsh turlari	Zardo‘zlikda ishlatiladigan gazlamalar	Zardo‘zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar	Zardo‘zlik kasbining tikish usullari
1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.
3.	3.	3.	3.
4.	4.	4.	4.
5.	5.	5.	5.

Javoblar:

Naqsh turlari – 1, 7, 12.

Zardo‘zlikda ishlatiladigan gazlamalar – 2, 4, 10, 14.

Zardo‘zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar – 3, 5, 8, 11.

Zardo‘zlik kasbining tikish usullari – 6, 9.



“Dizayner” metodi

Bu metodni qo‘llashdan oldin yangi mavzu tushuntiriladi va mavzuni mustaqil o‘qib olishlari uchun besh daqiqa vaqt beriladi. Bu metod orqali o‘quvchilar yangi mavzuni mustahkamlab, xomashyolarning nima maqsadda qo‘llanilishini bilib oladilar. Topshiriqni to‘liq bajargandan keyin yashiringan kalit so‘z topiladi. Shart to‘liq bajarilib, so‘z to‘g‘ri chiqsa metod to‘laqonli bajarilgan hisoblanadi.

Kartochkalar qirqilib aralashtiriladi va savollarga to‘g‘ri javob berilsa “DIZAYNER” kalit so‘zi paydo bo‘ladi.

Shohista SALAYEVA,
Xonqa tumanidagi 7-maktabning
texnologiya fani o‘qituvchisi



Siz nima deysiz?

Bola va pul munosabatlari

qachondan, qanday yo'lga qo'yilishi to'g'ri?



Aslida pul nima? Oddiy qog'oz. Kishilarning moddiy ehtiyojlarini qoplaydigan vosita. Lekin uning o'rnini shunchalik yuqori darajaga ko'tarib qo'yganmizki, uning kamligi yoki yo'qligi bilan odamlarning jamiyatdagi o'rnini belgilashga harakat qilamiz. Pulimiz kam bo'lsa, kayfiyatimizga ham ta'sir qiladi.

Aslida, pul – yaxshi ustoz! Uning borligi ham, yo'qligi ham kishini harakat qilishga, fikrlashga, tasavvurini ishga solishga undaydi.

Axborot oqimi rivojlangani sari kishilarning yashash sharoitlari yuksalgani, moddiy ehtiyojlari ko'payib ketayotganini ko'ryapmiz. Qalblarda bergan ne'matlariga shukronalik kamayib borayotgandek, nazarimda. Hamma hovliqqancha qayoqqadir shoshadi, jonsarak, asabiydek ko'rinadi.

Avtobusga chiqqanmisiz? Metroga oxirgi marta qachon o'tirdingiz?

E'tibor berib kuzatsangiz, aksariyat odamlar tund, tushkun qiyofada... Tabassum bilan qaragan, hayotdan mamnunligi, baxtiyorligi yuz-ko'zida aks etib turgan, nur taratgan misoli yorqin chehralarni ko'rish amrimahol...

Aminmanki, agar shu odamlarning qalbiga quloq tutib, uni qiynayotgan muammosini so'rasangiz, aksariyatini moddiy masalalar qiynayotgan bo'ladi. Shuning uchun izimizdan o'sib kelayotgan farzandlarimizning moddiylikka, pulga bo'lgan munosabatini bolaligidan to'g'ri tarbiyalash muhim.

– Bola ota-onasining moddiy ahvoli, oilaviy imkoniyatidan xabardor bo'lishi kerak, – deydi toshkentlik Dilobar Ergasheva. – Ota-ona o'zaro suhbatda bo'lsa ham pul qanday topilayotganini tushuntirishi, sekin-sekin oilaviy muammolarga bolaning diqqatini jalb etishi kerak. Biror masalani hal qilayotib boladan hech bo'lmaganda fikrini so'rash lozim. Shundagina farzand oilaga tegishligini, uning ham ovozi hisobga olinishini his qila boshlaydi. Bolaning og'zidan chiqqanini muhayyo qilaverish ham uni tantiq, erka qilib qo'yadi. O'zim tahririyatda operator-teruvchilik qilib, ro'zg'or tebratardim. Turmush o'rtog'im avtohalokatdan keyin nogiron bo'lib qolgandi. Qiyn sharoitda bolalarimni o'qitdim. Shunday bo'lsa-da, qorni och yurmasligini ta'kidlab, imkonim boricha yo'lkirasi va boshqa ehtiyojlariga pul berardim. Ayniqsa, to'ng'ichim Nodir vaziyatni ko'rib, bilib turgani uchunmi, tez yonimga kirdi. Ta'til payti viloyatda yashaydigan ammasinikiga borib, sigir boqish, dalada ekinlar ekib yetishtirish, turli poliz mahsulotlarini olib kelib bozorda sotish kabi jarayonlarning ichida o'sdi. Shaharga kelib ham uyimiz atrofidagi to-morqani chopib, turli sabzavot, ko'katlar yetishtirardi. Meva va sabzavotlarni terib, sotib kelar, puliga ro'zg'orga kerakli narsalarni olardi. Bolaligidan mehnatga o'rgangani, bozorda kishilar bilan muomala madaniyatini o'zlashtirgani uni har bir muammoga tadbirkorlik bilan yechim topishga o'rgatdi. Hozir o'g'illarim yirik

tadbirkor. O'z farzandlari o'qishi, intilishi, komil inson bo'lib yetishishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Bolaga pul berish kerakmi? Yosh bola pulni keraksiz o'rnlarga ishlatib qo'ymasligi uchun qanday choralar ko'rish kerak? Bolani pul buzadi, degan gaplar qanchalik to'g'ri?

Bu mavzu haqida Habibulla Qodiriyning "Otam haqida" kitobida o'qiydiz:

"... – Ada, menga kitob olishga pul kerak.

– Yaxshi, – deb so'raganimni berar edilar: Biroq bundan pulni osongina olib ketdi, deb o'ylaysizmi? Yo'q, kechqurun chaqirib so'rar edilar:

– Kitob oldingmi?

– Oldim.

– Qani, keltir.

Men kitoblarni keltirib oldilariga qo'yardim. Muqovasidagi bahosini hisoblab chiqar edilar:

– Qolgan pul qani?..

Dadam menga faqat birgina morojniyga ruxsat etar, qolganini qaytarib olar edilar. Maktabga ketishimda ham pulni juda o'lchovli, tramvayga va bir-ikki stakan suvga loyiq berar, peshinlik ovqatni-ku, uydan papkamga solib olishga buyurar edilar. U kishining bizga nisbatan bunchalik siqiq bo'lishidan bibim goho ranjirdi:

– Bolaga mehning juda qattiq, Abdul-la...

– Gap qattiqlikda emas, oyi, pulga o'rgatmaslikda, pul bolani buzadi... – der edi jiddiy va o'z "qoida"larini davom ettiraverardi".

Asar muallifi bu tutum bugungi zamonaga qanchalik to'g'ri kelish yoki kelmasligini bilmasligini, biroq o'sha vaqtda ranjigan bo'lsa-da, bugun shu tarbiya uchun rahmat deyman, deya fikrini bildirgan.

Abdumurod Tilovovning "Bolalarga gap uqtirish san'ati" kitobida shunday keltiriladi:

"Bolaligi og'ir sharoitlarda o'tgan ota-onalar ko'pincha "Men qiyinchilik ko'rdim, farzandim qiynalmasin, hech narsaga zoriqmay ulg'aysin" deb farzandining har bir istagini bajarishadi, xatti-harakatlarini cheklamaydi. Ular mana shu tarzda farzandining baxtli bo'lishiga ishonishadi. Biroq o'ylaganlarining teskarisi bo'ladi. Bola erkato'y, mas'uliyatsiz, qo'lidagi narsaning qadriga yetmaydigan, gap tinglamaydigan va boshqalarni hurmat qilmaydigan shaxs bo'lib o'sadi.

"Hech narsaga zoriqtirmadim, yemadim, yedirdim, kiymadim, kiydirdim, urmadim, urishmadim, nega bunday bo'ldi?" deb hayron bo'lib qolganlar qancha hayotda.

Kuzatishlar bolalarning har sohani bilishlari, boshqalar bilan sog'lom muno-

sabat o'rnata olishlari va muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun ularni yo'naltirib turadigan cheklov va chegaralar zarurligini ko'rsatmoqda.

Qoidalar va cheklovlar aslida bolaga zarar keltirmaydi. Bola unga ahamiyat berilayotgani sababli chegaralanayotganini tushunib yetadi. Bola biror narsa istaganida uning rostan ham shu narsaga ehtiyoji bormi, yo'qligini bilish muhim. Agar ehtiyoj bo'lsa, bajarish; zarurat bo'lmasa, u shunga loyiq bo'lgandagina istagini qondirish lozim. Shu tariqa bola ba'zi istaklariga mehnat qilsagina erishishi mumkinligini anglab yetadi. Qolaversa, mehnati evaziga erishgan narsasining qadriga yetadi.

Bolaning zaruriy ehtiyojlarini qondirmaslik qanchalik noto'g'ri bo'lsa, ularning har qanday istagini bajarish ham shu qadar xatodir".

– Bolaga nimani taqiqlasang, shu narsaga ko'proq qiziqib ko'radi, bu tabiiy, – deydi Payariq tumanidagi 97-maktabning tarix fani o'qituvchisi Fotima Hasanova. – Otam rahmatli pul so'rasak, bizga "ana, televizorning ustiga qo'yib qo'yanman, o'sha yerdan ol", derdi. Keragini olardik, keyin nimaga va qancha ishlatganimizni albatta so'rardi. Hozir 5-sinf o'quvchilariga sinf rahbariman. Yonida har doim puli bo'lgan va har zamonda pul berilgan bolani bir qarashda ajratsa bo'ladi. Ko'liga pul tushib qolgan o'quvchi hovliq-qancha birinchi dars tugashi bilan maktab oshxonasiga yuguradi. Bo'lar-bo'lmas narsalar olib, darrov pulini tugatadi. Doimiy puli bo'lgan bola esa ko'zi to'q bo'ladi, bosiqlik bilan keragini ishlatadi. Yoshlikdan bolaga pulni taqiqlash emas, aksincha pul bilan muomala qilish ko'nikmasini o'rgatish kerak. Ota-onalarga ko'p aytaman, ortiqcha pul bermang, berganingizni nimaga ishlatganini albatta so'rang, deb. Bola unga pul berish bilan ishonch bildirilayotganini his qilsin. Shundagina farzandlarimiz mas'uliyatni his qilib, o'zlariga bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qiladilar.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarsiz kun o'tmaydigan, bir kun telefonsiz bo'lsak, bir narsamizni yo'qotib qo'yganday betoqat bo'lib qoladigan zamondamiz. Maktab o'quvchilarining ham qo'lida shu matoh. Internetga kirsam, hamma omadli, baxtli, boy, hashamatli hayotini ko'z-ko'z qiladi. Shu o'rinda xalq shoiri G'afur G'ulomning "Yondaftardan" deb nomlangan bitiklaridan: "O'zini badavlat ko'rsatishga uringan kishi chinakam kambag'aldir" degan fikrini keltirish to'g'ri bo'lardi. Ko'z-ko'z etilgan to'kin dasturxon-u restoranlar, zavq-u shavqqa to'la sayohatlar, qimmatbaho buyumlar-u mashinalarni ko'rgan yosh bola ham shunday hayotga erishishni xohlaydi, tez boyib qolgisi keladi. Natijada o'smir yoshdagi bolalar, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik ortib bormoqda.

Oliy sudning rasmiy telegram kanalida joriy yilning 30-yanvarida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan 2025-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan

sudlangan shaxslarning 23 ming 973 nafari yoshlar(shu jumladan, 2 ming 431 nafari voyaga yetmaganlar) ekanligi kishini tashvishga soladi. Sodir etilgan jinoyatlar turiga e'tibor bersak, o'g'rilik, firibgarlik, tovlamachilik, narkotik moddalar savdosiga aralashuv kabi jirkanch illatlar sanab o'tiladi.

Qalbida ma'naviy bo'shliq, yetarlicha tushunchalarga ega bo'lmagan yoshlar, afsuski ijtimoiy tarmoqdagi 90 foizi yolg'on va soxtalikdan iborat bunday "sahna"larni rost deb qabul qiladi. Qisqa muddatda, oson yo'l bilan boyib qolgisi keladi.

Buyuk kishilar ko'p ta'kidlagan bir haqiqat bor: har narsada me'yor yaxshi, ya'ni "oltin o'rtalik". Bolaga umuman pul berilmasa, pulga qiziqib, ko'proq intiladi. Keragidan ortiq mablag' berilganda ham ko'p hollarda oqibati yaxshilikka olib bormaydi.

– Bolaga "cho'ntak puli" berilishi kerak. Chunki o'quv qurollariga yoki boshqa narsasiga kerak bo'lib qolishi mumkin, – deydi Boymurod Shermatov. – Bola-ku, tengdoshi iste'mol qilayotgan taomni ko'rib, uning ham yegisi kelib qolishi tayin. Turmush o'rtog'im bilan shu masalada ko'p tortishib qolamiz. U uyda ovqat tayyorlab qo'yaman yeyishlariga, ortiqcha pul bermang, deya ta'kidlaydi. O'g'illarim xususiy maktabda o'qishadi. Kunbo'yi maktabda, 4 mahal ovqati bor. Shuning uchun ularga kitobga pul so'rashsa, beraman. Lekin qizlarimga onasidan yashirib bo'lsa ham mablag' berib turaman. Qiz bola pulsiz yurishi kerak emas.

"O'zi aslida bolaga necha yoshdan pul berilishi kerak? Bolajonlarning maqola avvalida ta'kidlanganidek, moddiy boyliklarga, pulga qiziqishi ortib borayotganini mutaxassis sifatida qanday baholaysiz?"

Shunday savollar bilan **shaxsiy moliya bo'yicha murabbiy, inflyuenser va investor Saidazam Xo'jayevga** murojaat qildik.

– Bolaga pulni o'zi so'ray boshlaganida berish kerak. Aniq yoshi bormi, dey-digan bo'lsak, 5-6 yoshdan boshlab bolani pul bilan munosabat qilishga o'rgata borgan ma'qul. Bu yoshdan kechikmasa, yaxshi bo'ladi. Bolaning moddiylikka qiziqishi, bir so'z bilan aytganda, yaxshi. Bizning bolaligimizda kishilarda qandaydir moddiy boylikdan qo'rquv bo'lgan, pul munosabatlari o'rgatilmagan.

E'tibor qilsak, tabiatda jonivorlar o'z bolasiga ov qilishni o'rgatadi. Sher-mi, yo'lbarsmi, jamiki hayvonlar, hattoki qushlar ham qanday qilib yemishini topib, donini terib yeyishni o'rgatadi. Bizda esa ov qilish – bu pul topish demakdir. Demak, biz ham farzandlarimizga faqat maktabda, OTMda o'qishi, kasb-hunar o'rganishi uchun sharoit yaratish bilan cheklanmasdan, birinchi navbatda pulni to'g'ri boshqarishni o'rgatishimiz kerak. Bolaga yoshligidan so'raganida pul berish, uning nimaligini, nima uchun ishlatilishini, qayerdan paydo bo'lganini ota-ona to'g'ri tushuntirishi zarur. Uni tejab, ortiqcha xarajat qilmasdan, jamg'arib borishni o'rgatish maqsadga muvofiq. Bolaga moliyaviy savodxonlikni ilk yoshlaridan o'rgata borish kerak. Ilk iqtisodiy saboqlarning ustuni bo'lmish uchta asosiy formulani: bankrotlik formulasi(agar qarzga yashayotgan bo'lsa, ya'ni xarajatlari daromadidan ko'p bo'lishi), kambag'allik formulasi(qancha topishidan qat'i nazar, xarajati daromadiga teng bo'lishi) va boylik formulasi(daromadi xarajatidan ko'p bo'lsa, orttirgan pulini kelajakka investitsiya qilishi)ni bolaligidan sekin-sekin o'rgatib borish kerak.

Nazokat XOLMETOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Mushohada

“Yarim piyola suv – piyolaning yarmi bo’sh” – ruhshunoslar odamning borliqqa, ya’ni dunyoga nazarini aniqlashda bir voqeilikka ana shunday ikki munosabatdan kelib chiqib baho beradilar: kim optimist, kim pessimist?! Ya’ni, 1) kimdir ertangi kunga umid bilan qaraydi; 2) kimdir esa ... hamma narsadan mosuvo bo’lgan. Bir toifa har qanday holatni taqdир ishi deb biladi va shunga mos ravishda intiladi: qiyinchiliklardan chiqish yo’larini izlaydi, nolimaydi, chidaydi. Boshqasi esa turmush tashvishlaridan charchagan. “qo’lini yuvib, qo’ltig’iga urgan”, ertaga ham biror o’zgarish bo’lishiga ishonmaydi.

Aslida odamlar to’dasining ikki toifaga bo’linishi(albatta, ularning safida “dunyoni suv bossa, to’pig’iga chiqmaydigan”lari ham bor) tabiiy jarayon emas, balki ijtimoiy munosabatlarning hosilasidir, ya’ni odamlar Odamlar dunyosida yashab, ikkiga ajraladilar. Shuning bilan go’yo tirikchilik aravasini harakatga keltiradigan kuch yuzaga kelganga o’xshaydi va shu ikki taraf intilishlari mohiyatida olg’a yoki ortga qadam qo’yilishi hal bo’ladi. Shak-shubhasiz, optimistlar ham, pessimistlar ham jamiyatda tarbiyalanadi va shakllanadi. Ularning paydo bo’lish evolutsiyasi(tadriji)ni tahlil qilish esa juda maroqli.

Bir ulug’ yozuvchi shunday dastxat qoldirgan ekan: *“Sizning uchta kitobingizga bitta kitob berdim”* va izidan yaxshi tilaklar. Siz shu bitta gapni qanday izohlagan bo’lardingiz? To’g’risi, shunday savol bilan tanishlarga murojaat qildim. Bir guruh *“Sizning uchta kitobingiz mening bitta kitobimga teng, debdi”* tarzida fikr bildirishdi. Juda ozchilik esa *“Siz sermahsulsiz, bitta kitob chiqaribiz, men esa uchta xijolatdaman”*, deyapti...” tarzida sharhladi. Ana shu ikki xil yondashuvda, aslida, voqeilikka ikki xil munosabat ifodalangan: har qanday harakati yaxshilikka qabul qilish yoki *“qildan qiyiq topib”*, g’arazgo’ylikka yo’yish mumkin. Deylik, kimdir bexosdan yuzingizga tarsaki tortib yubordi. Aks ta’sir qanday bo’ladi: aksariyat tarsakiga tarsaki bilan javob beradi. Faqat kamgina odam *“Bechora, asabiy holatda ekan, o’zini bosa olmadi”* tarzida mulohaza qilib, jim turishga kuch topadi. Endi, ikki munosabatdan qay birida jamiyatga foyda ko’proq? Va ikki xil munosabatlarning ildizi qayerda? Yana qiziq manzaralar ko’z oldimizga keladi.

Tilimizda “oqko’ngil” degan ibora bor. Unga zid ravishda “qora yurak” degan so’z birikmasi ham mavjud. Oq va qora – zid tushunchalar, bu aniq; birida sifatlanmish “ko’ngil”, boshqasida “yurak” bo’lganida ham o’ziga xos sinoat yashirindir, ammo “oqko’ngil” yoki “qora yurak”ning mazmunini aniq. Bu ikki tushuncha kecha va kunduz, issiq va sovq singari qarama-qarshi ma’nolarni ifodalaydi hamda hech qachon istisno tariqasida “oq yurak” – “qora ko’ngil” tarzida qo’llanil-

maydi. Til qonuniyatining o’ziga xos tabiiy mantig’ini aks ettiruvchi bunday holatlarni sharhlash mumkin emasdir, ammo borliqni oq yoki qora ranglarda qabul qilishni tushunish va tushuntirish mumkin, chunki bu ikki nuqtayi nazar ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ilm tasdiqlaydiki, kishida bunday fe’l-atvorlar(balki sifatlar) odamlar dunyosida, atrof-tevarakning shaxs(individ tabiati)ga ta’siri orqali shakllanadi. Bu holni tushunish uchun ibtidoaga qaytaylik.

Inson zurriyodi yorug’ olamga qadam qo’ygach, tiriklik oqimiga tushadi. Zotan, oqimning ikki qirg’og’i bor va qirg’oqlar parallel chiziqlardek kesishmaydi. “Qirg’oqlar” deganda bir tarafda jami yaxshilik va ikkinchi tomonda jami yomonlik jihatlarni nazarda tutamiz. Tabiiy, hech kim faqat yaxshi yoki faqat yomon bo’lmaydi, uning tabiatida bir jihat ustun bo’ladi, xolos, chunki u “yaxshi” va “yomon”dan iborat qirg’oqlar o’rtasidagi oqimda ulg’ayadi. Yangi zurriyodning fe’l-atvori, umuman, kelajagi oqimning qal’isi qirg’oqqa(yoki qirg’oqning) yon bosishiga(ya’ni moyilligiga) bog’liqmikan? Axir har bir nuqtadashuvda, aslida, voqeilikka ikki xil munosabat ifodalangan: har qanday harakati yaxshilikka qabul qilish yoki *“qildan qiyiq topib”*, g’arazgo’ylikka yo’yish mumkin. Deylik, kimdir bexosdan yuzingizga tarsaki tortib yubordi. Aks ta’sir qanday bo’ladi: aksariyat tarsakiga tarsaki bilan javob beradi. Faqat kamgina odam *“Bechora, asabiy holatda ekan, o’zini bosa olmadi”* tarzida mulohaza qilib, jim turishga kuch topadi. Endi, ikki munosabatdan qay birida jamiyatga foyda ko’proq? Va ikki xil munosabatlarning ildizi qayerda? Yana qiziq manzaralar ko’z oldimizga keladi.

Tilimizda “oqko’ngil” degan ibora bor. Unga zid ravishda “qora yurak” degan so’z birikmasi ham mavjud. Oq va qora – zid tushunchalar, bu aniq; birida sifatlanmish “ko’ngil”, boshqasida “yurak” bo’lganida ham o’ziga xos sinoat yashirindir, ammo “oqko’ngil” yoki “qora yurak”ning mazmunini aniq. Bu ikki tushuncha kecha va kunduz, issiq va sovq singari qarama-qarshi ma’nolarni ifodalaydi hamda hech qachon istisno tariqasida “oq yurak” – “qora ko’ngil” tarzida qo’llanil-

Tabiiy, odatdagi me’yor buziladi, hamma chalg’iydi, kechikkan bola diqqat markaziga ko’chadi, kechikish sabablarini aniqlashga kirishib ketiladi va keraklicha tanbeh bilan jarayon nihoyasiga yetadi. Balki shunday batafsil taftishdan keyin bola qilig’idan pushaymon bo’lar, qolganlar ham saboq chiqarar, ammo bunday “ishlov berish”lar muttasil davom etsa-chi?

Maktab – kelajak fabrikasi. Uning “sex”larida eng noyob “mahsulot” (uzr!) tayyorlanadi, ya’ni kelajak, ertangi kun yaratiladi. Agar istiqbol manfaatidan kelib chiqilsa, birinchi talab – “mahsulot”lar xaza yemagan, qiyshaymagan, unimqamgan, umuman, toza va asil bo’lmog’i darkor. Ammo har doim bunga erishiladimi?

Gap nimadaligini to’liqroq tasavvur etish uchun yana “o’qituvchi-o’quvchi” munosabatiga qaytaylik. Demak, maktabning asosiy vazifasi – bolaning tabiiy tug’ma fazilatlariga xaza yetkazmaslik, shu asnoda uning botinidagi qobiliyatlarini rivojlantirish, kamchiliklarini bartaraf etish – to’g’rilash talabiga xizmat qilishdan iborat. Gapning sirasini aytganda, bola maktab dargohidan buyuk fizik yoki ximik(va hokazo), shuningdek, iqtidorli shoir yoki mohir rassom bo’lib chiqishi mumkin emasdir, lekin shunday marralarni egallaydigan qobiliyati uyg’onib, shaxsiyatida o’ziga ishonchi ortib va maqsadi yo’lida zarur fazilatlarini o’zlashtirib chiqishi shart. Odam butun umri davomida o’rganadi, izlanadi, baribir saboq olishni oxiriga yetkaza olmaydi. Maktab bosqichi ana shu ulug’ yo’lning birinchi qadamini (“Maktab”ga behuda urg’u berayotganimiz yo’q, nazarinizda, “qorayuraklik” epidemiyasi shu dargohda yuqadi).

Xullas, birinchi qadam, ya’ni o’qituvchining avf etishi – o’quvchi qalbiga doxil qilmasligi, uni “ezmasligi”, bolaning optimist bo’lib voyaga yetishiga xizmat qilishi lozim(sharhini o’zingiz mulohaza qilib olavering). Lekin bu yumushni uddalash, demak, “optimist”larni voyaga yetkazish oson emas. Afsuski, kuzatishlar kelajak vorisi bo’lib ulg’ayayotgan yangi avlodga zarur ko’nikmalar kamol topmayotganini ko’rsatmoqda. Hatto maktab dargohini tark etayotgan bitiruvchilarning aksariyatida mustaqil fikr yo’qligini, o’zining ertangi hayoti yuzasidan tasavvurga ega emasligini tasdiqlamoqda. Nega shunday?

Yana kuzatishlar va tahlillar tasdiqlamoqdaki, mustaqil hayotlik qadam qo’lyayotgan ayni davrdagi bolalarimiz katta avlodga bepisand qaraydi, jizzaki, hazilni har bir harakatini baholab borish talab qilindiladi), ya’ni o’zini jilovlay olmay, o’shqirib ketsa-chi?

ning chegarasi aniq emas, jasorat tuyg’usi, g’urur hissi sust. Voqeilikka loqayd... Bir so’z bilan aytganda, ular go’dakligidayoq hayotdan sovib, “qarib” qolayapti! Eng achinarlisi – ularning aksari “oqko’ngil” – samimiy, sodda, beg’ubor emas, “qora yurak” – kekchi, g’arazgo’y, munofiq bo’lib voyaga yetayapti(afsuski!). Endi bunday holni yuzaga chiqaradigan ildizlar, oqibatning sabablari haqida mulohazalarni davom ettiraylik.

Yana “kechikkan bola”ga qaytadigan bo’lsak, u xatosi tufayli xijolatda edi, muallimning unga munosabati – “jazo bermagan” o’z-o’ziga izza bo’ldi, ichidan uyaldi va shu bilan hamiyati uyg’ondi(bizningcha). Uning qal’ida urug’i qadaldi: “Hamma ishni yaxshilik bilan uddalash mumkin!” Endi teskari holatni tasavvur qiling: yetarlikka dakkii eshitgan, kechikkaniga jazo sifatida qo’li ko’tarib qo’yilgan yoki bir-ikki shapaloq yegan bola qanday xulosa chiqaradi? To’g’ri, u endi kechikmaydi, ammo bu harakatinin ixtiyoriy, ongli emas, qo’rqandidan amalga oshiradi. Bizning milliy tabiatimizda ana shu usul – “qo’rqitib tarbiyalash” ustuvor, shundaymi?

Dars davom etadi, qo’ng’ir-oq chalinadi, yangisi boshlanadi. Yana bir keskin holat: bolalar tarbiyamizning ikkinchi sinalangalida kelib qo’yadi. Endi o’ylab ko’ring: avtobusda yurish, sovuq xonada yashash necha pulga tushadi?! Axir biz o’zimiz sezmaganda holda erkimizni boy berayapmiz-ku!

...“Qo’rqitmay o’stiridim, botir bo’ldingizlar” deydi doston qahramoni bolalariga. Qo’rqivni bil-magan odamgina erkindir. Erkin odamgina mustaqil bo’la oladi. Bu masalaning bir tomoni, axir “qora yurak” osmondan tushmaydi. Gap bola qalbi haqida ketar ekan, oila muhitidagi boshqa tartiblar ham unga qanday ta’sir etishi taroziga qo’yilavermaydi. Deylik, farzandlar ko’z oldida er-xotinning janjaligalashishi bola qalbini butunlay vayron qilib yuboradi. U nafaqat o’z yaqinlariga, balki jami erkak va ayollarga nafrat bilan voyaga yetadi. Yoki ular oldida bo’lar-bo’lmagan gaplarni tortinmay gapiraverish, atrofdegilarini yomon so’zlar bilan q’iybat qilish yoki nuqul yoqimsiz gaplarni so’kinib so’zlash... hango’dakning murg’ak dunyosini ostin-ustin qilib yuboradi. Bola “Odamlar bir-birini shunchalik yomon ko’radimi?” degan xulosaga bordimi, demak, ko’chaga chiqib, hech kimga salom bermaydi, hatto o’qituvchisini ham hurmat qilmay qo’yadi.

Pand-nasihat tinglayverib charchagan, qo’rquv olamida ulg’aygan, kattalarning dunyosidan nafratlanib boshlagan bola, yana uch-to’rt shunday salbiy holat(masalan, kimningdir qalloblik bi-

layon boyigani, boshqasining harom yo’l bilan mansabga erishgani haqidagi suhbatlar, yolg’onchilik, o’g’rilik, sotqinlik ... singari holatlar)ga duch kelgach, har bir harakatning oxirida fojeani, ya’ni qonni ko’radi. Qizil rang to’qlashaverib, qoraga aylanadi. Oqibatda, uning botini, qolaversa, butun borlig’i qora zulmat bilan qoplanadi. Ana shunday muhitda voyaga yetgan odamning yuragi toza bo’ladimi, bo’la oladimi? Qilg’ilikni qilib qo’yib, keyin bolalarimizning mehrsizligi, be-shahligi, gap uqmasligi..., yana yuz-lar qusurlari yuzasidan shikoyat qilib yuramiz.

Ramzan “qora yurak” atalgan odam borliqni boricha ko’ra olmaydi. Xuddi shirinlik ta’mini bil-maganidek, zulmat va yorug’likni ajrata olmagandek, borliqqa hech bir qo’llanma-yu darslikda yozil-magan o’lchovlar bilan baho bera-di. Ta’bir joiz bo’lsa, uning nazari-ga borliq oyog’i osmonda bo’lib ko’rinadi. Unga birovning ko’ma-dig haqorat, tabassumi masxara, xullas, yaxshiligi yomonlik bo’lib tuyuladi. Bunday odam bilan til topish ham, uni tushunish ham qiyin. Faqat o’z dunyosida yashay-tufayli ishingiz sudda ko’riladi!... Bunday munosabatlar shundoqqi-na turma panjarasini ko’z oldingiz-ga olib kelib qo’yadi. Endi o’ylab ko’ring: avtobusda yurish, sovuq xonada yashash necha pulga tushadi?! Axir biz o’zimiz sezmaganda holda erkimizni boy berayapmiz-ku!

...“Qo’rqitmay o’stiridim, botir bo’ldingizlar” deydi doston qahramoni bolalariga. Qo’rqivni bil-magan odamgina erkindir. Erkin odamgina mustaqil bo’la oladi. Bu masalaning bir tomoni, axir “qora yurak” osmondan tushmaydi. Gap bola qalbi haqida ketar ekan, oila muhitidagi boshqa tartiblar ham unga qanday ta’sir etishi taroziga qo’yilavermaydi. Deylik, farzandlar ko’z oldida er-xotinning janjaligalashishi bola qalbini butunlay vayron qilib yuboradi. U nafaqat o’z yaqinlariga, balki jami erkak va ayollarga nafrat bilan voyaga yetadi. Yoki ular oldida bo’lar-bo’lmagan gaplarni tortinmay gapiraverish, atrofdegilarini yomon so’zlar bilan q’iybat qilish yoki nuqul yoqimsiz gaplarni so’kinib so’zlash... hango’dakning murg’ak dunyosini ostin-ustin qilib yuboradi. Bola “Odamlar bir-birini shunchalik yomon ko’radimi?” degan xulosaga bordimi, demak, ko’chaga chiqib, hech kimga salom bermaydi, hatto o’qituvchisini ham hurmat qilmay qo’yadi.

Pand-nasihat tinglayverib charchagan, qo’rquv olamida ulg’aygan, kattalarning dunyosidan nafratlanib boshlagan bola, yana uch-to’rt shunday salbiy holat(masalan, kimningdir qalloblik bi-

rayotgan odamni uchratganingizda ham barbod bo’lgan bolaligi, noqis tarbiyasi, dunyoga “qora ko’zoynak” orqali qarashidan lol qolgan holda, uning borlig’i nazari-nafratlanasiz. Yana “dunyoni yashnatish, gullatish uchun dunyoga kelgan”(azal bitigi) bir zotning shu ko’yga tushganidan rahmingiz qo’ziydi. U esa o’z nuqtayi nazari-ga kelib chiqib, sizning mehri-ngizni ham tushunmaydi, aksincha, tishini g’ijirlatib, sizga zavol tilay-di. Bunday holdan esa g’azabla-nasiz, ammo uni unuta olmaysiz. Ziddiyatlar ichida shakllangan bu nusxa birinchi o’rinda – pessimist, o’zining ham, jamiyatning ham kelajagiga ishonmaydi, qorong’i dunyosida shunchaki tirikligi uchun harakat qiladi... Jamiyati-mizda ana shunday “zot”lar on-da-sonda bo’lsa ham uchrab tura-di. Bu illatga chalingan qaynona kelinini o’g’lidan rashk qiladi; o’g’il otasiga hasad bilan qaraydi; xodim rahbarining ustidan tinim-siz shikoyatlar yozadi... Gapning indallosi – hozirgacha oqko’ngil odamning kimligini hamma bila-di, ammo qora yurakning qiliq-lari o’lchamini hech kim hisoblab chiqolmagan!

Hammamiz munosabatlar qorishiq dunyoda yashaymiz. “Molning olasi sirtida, odamning olasi ichida” degan maqol bor. Ammo idishning yarmi suyuqlikka to’la ekanini ko’rgan odamda ertaga uning to’lishiga umid bo’lganidek, idishning bo’sh qismini ko’rgan odam uning to’lishini istamasligi yoki ishonmasligi, hatto ko’rmasligi mumkin bo’lganidek, odamlar borliqqa umid va umidsizlik ko’zi bilan qarovchi ikki toifaga ajraladi. Bu – ilmnin xulosasi. Aslida ham shunday. Endi qarashlar ajraladigan suvayirg’ichga to’g’ri kelganda nekinlik(badbinlik emas) bilan dunyoga qarash ko’p bo’lishini xohlasak, buni ta’minlash iloji bormi? Albatta, bor. Axir insoniyat Tarbiya degan muassasani yaratdi, unga Ta’limni hamroh qildi. Bu vositalar Maktabda birlashdi. Demak, hammasini ana shu kelajak ustaxonasidan kutishga haqlimiz. Maktabning ustunlari hisoblangan o’qituvchi(muallim, domla, ustoz)ning zimmasida ana shunday olamshumul yuk bor.

Ziddiyatlar bir qobiqda ulg’ayadi, lekin baqamti yashashi mumkin emas. Agar shunday hol ro’y bersa, qora bo’yoqlar oqlikni yeb yuboradi, ya’ni barbod qiladi. Demak, o’rtada o’tib bo’lsa devor bo’lishi, u ezuq maqsadli odamlar tomonidan tiklanishi lozim. Dunyoni asrashning mohiyati shunda. Aslida, Kelajakning taqdiri ham shunda! Binobarin, “qora yurak”larga beparvo bo’lmaylik, qo’ldan kelgancha ularning ko’payishiga to’siq qo’yaylik!

Hakim SATTORIY

Meros

Hayotda halollik o’ta muhim o’rin tutadi. U inson umri xotirjam, osoyishta va farovon o’tishiga garovdir, desak, mubolag’a bo’lmaydi. Halollik eng go’zal xislatlardan bo’lib, ko’pincha aynan mana shu fazilat orqali inson o’zgalarning mehr-muhabbatini qozonadi. Halol luqma va mehnat bilan topilgan mol-mulk inson qalbiga xotirjamlik, sokinlikni mustahkam qiladi. Inson faqat ishga mas’uliyatli yondashuvi bilan jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligiga erishishga hissa qo’sha oladi. Bu esa halollikdan kelib chiqadi.

Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: *“Kim tilanchilik qilishdan saqlanish, oilasini boqish va qo’ni-qo’shnilariga muruvvat ko’rsatish maqsadida halol yo’l orqali rizq topish bilan mashg’ul bo’lsa, qi-yomat kuni Alloh taolaga yorug’ yuz bilan yo’liqadi”*, deganlar. Ha, inson halol mehnat bilan ulug’ savoblar va oliy darajalarga erishadi.

Halollik bobida sahobalar hayoti biz uchun eng go’zal namunadir. Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam as’hoblarining hammasi o’z kasbi bilan mashg’ul bo’lgan. Sahobalarning hayotidan bunday xulosa kelib chiqadi: *dindorli mehnatdan qochish, belni og’ritmay pul topish emas, balki mehnatni ibodat darajasiga olib chiqishdir*.

Jamiyat taraqqiyotining poydevori – halollik

Inson yoshligidan ilm o’rganmasa, kasb-hunar egallamasa, boqimandalikka o’rganib qolishi, keyin tamagirlikka o’tib, oxiri xorlikka uchrashi mumkin. Farzandlarining ilm olishi va kasb-hunar egalashi uchun hamma sharoitlarni qilib berish har bir ota-onaning, davlatning zimmasidagi muqaddas vazifadir. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: *“Ey odamlar, hech biringiz rizqingizni mukammal olmaguningizcha vafot topmaysiz. Rizqda shoshilmang, Allohdan qo’rqing, chiroyli talab eting. Sizga nima halol qilingan bo’lsa, uni oling va Alloh harim etganini tark qiling”*, deganlar. Demak, ilohiy ne’mat bo’lgan rizqni halol yo’l bilan talab qilish lozim. Bu – erkakka taalluqli gap.

Ayol esa turmush o’rtog’ining rizq topish yo’lidagi mashaqqatlarini qadrlashi va hojatidan ortig’ini talab qilmasligi darkor. Aksincha, o’zi va farzandlarini qanoatga undab, erini harom yo’llardan ogohlantirib turishi zarur. Momalarimiz bobolarimizni kuzata turib: “Harom kasbdan saqlaning! Biz ochlik va qiyinchilikka chidaymiz, ammo do’zax oloviga bardosh bera olmaymiz”, degan. Ya’ni, ayol erining toqatidan, sakhohiyatidan ortiq narsalarni talab qilmasin.

Faqih Abu Lays Samarqandiy: *“Har narsaning ziynati bor, yigitlikning bezagi kasbdir”*, degan. Demak, inson farzandlarini kasb-hunar o’rgatish bilan ziynatlaydi.

Yoshlarga zamonaviy ilm va hunarlarni egallashni targ’ib qilish eng muhim masalalardan sanaladi. Hazrati Ali roziyallohu anhu har bir davrda o’ziga xos ilmlarni o’rganish zaruratiga ishora qilib: “Farzandlarining o’z davri ilmlarini o’rgatig, chunki ular sizning davringizdan boshqa davrda dunyoga kelgan”, degan. Albatta, insonning solih va barkamol bo’lib voyaga yetishi yoshligida olgan odob-axloqi va ilm-ma’rifatiga bog’liq. Shu bilan elga taniladi, e’tiborga tushadi, qadr topadi.

Dono xalqimizning “Hunar bo’lsa qo’lingda, non topilar yo’lingda” degan naqli bor. Bunday maqollar yoshlarni kasb-hunarga chorlash uchun aytilgan. Chunki er kishi hunarsiz bo’lmaydi. Miqdam roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: *“Hech kim o’z qo’li bilan topgan rizqdan lazzatliroq taom yemagan, Allohning payg’ambari Dovud alayhissalom ham qo’l mehnati bilan tirikchilik qilganlar”*, deganlar”.

Dinimiz hamma sohada mo’tadil bo’lishga chaqiradi. Dunyoni deb oxiratni, oxiratni deb dunyoni tashlab qo’yimaslikni buyuradi. Shuning uchun musulmon kishi ikki dunyoni ham e’tiborga olib yashaydi. Halol kasb izidan o’zi va ahli-oilasiga pokiza rizq izlaydi.

Halollik bobida Nabiy sollallohu alayhi vasallamning merosxo’rlaridan sanalgan allomalarning hayoti biz uchun eng go’zal namunadir. Abu Hanifa rahmatullohi alayhning yo’qligida, shogirdi Madina

shahridan kelgan bir kishiga 400 dirhamlik qalin kiyimni 1000 dirhamga sotib yuborgan. Bundan xabar topgan ustozni uni qattiq koyigan va do’kondan chetlatgan. Xaridorning tashqi ko’rinishini so’rab olib, uni qidirib, Madina shahridan topgan va 600 dirhamini qaytarib bergan. Shundan so’ng xotirjam bo’lib Kufaga qaytgan.

Birovning haqqini yeyishdan qo’rqadigan insonning rizqi barakali bo’ladi. Buning belgisi shuki, insonda qanoat, shukr, sabr paydo bo’ladi va unga yaxshi amallarga tavfiq nasb etadi.

Halollik bobida yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan allomalarning hayoti ham biz uchun eng go’zal namuna. Xususan, Imom Buxoriyning ozgina

yeri bo’lgan, uni yetti yuz dirhamga yillik ijaraga bergan. Otasidan meros qolgan tijoriy mol-mulkni muzorabaga qo’yg’an(bir kishi samoya yotqizib, ikkinchisi ishlashi, foydada teng sheriklik qilishi shunday atalgan). Bularning daromadini ilmiy safarlarining xarajatlariga sarflagan. Ortig’ini talaba va faqirlarga ulashgan. Xalq foydasiga ham ishlagan, masalan, Firabrda karvonsaroy qurdirgan. Ya’ni, boylikni yanada ko’paytirish haqida bosh qotirmasdan, bor imkoniyatini ilm olishga sarflagan.

Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotim Varroq Buxoriy bunday deydi: *“Abu Abdulloh Buxoriyning: “Har oy oladigan besh yuz dirham foydaming bar-chasini ilm yo’lida sarflardim”*, deganini eshitdim”.

Bahouddin Naqshband hayotidan ham misol keltirish mumkin. Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” kitobida Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attorning mana bu so’zlari keltirilgan: “Hazrati Eshonning qadamlari sunnatga tobe” bo’lishda mustahkam edi. Halolga intilish va shubhali narsalardan qochishni, ayniqsa, halol luqmani ta’kidlab gapirardi. Suhbatida doimo: *“Ibodati o’n qism, to’qqiz qismi halolni qidirish, bir qismi boshqa ibodatlardir”*, degan hadisini aytar edi”.

Bahouddin Naqshband har yili arpa va mosh ekib, o’z qo’li bilan parvarishlagan. Chorvasiga ham o’zi qaragan. Taomi to’laligicha o’z ziroatidan tarkib topgan. Manbalarda yozilishicha, alloma: *“Otam ikkimiz kimxobbiqlik kasbi bilan mashg’ul edik”*, degan ekan. Demak, Bahouddin Naqshband otasi bilan birga o’sha davrda Buxoroda tayyorlanadigan va chet ellarda mashhur eng sara mato – kimxobga naqsh solish bilan mashg’ul bo’lgan. Mol-mulk jamlashga ruju qo’y-magan. Faqat ehtiyoji uchun kerakli narsalarni saqlagan va shularga qanoat qilgan.

Har bir inson shunday mezonlarga amal qilishi, ya’ni mol-davlatga mehr qo’yimasligi va boshqalarni ham halol mehnat qilib yashashga undashi kerak. Davlatimiz rahbari ham odamlarni halollikka da’vat etib, harom yo’lari bilan boylik orttirish, o’zgalar haqqiga tajovuz yo’ xiyonat qilish kabi razil sifatlardan saqlanish kerakligini bot-bot ta’kidlab keladi.

Buyuk ajdodlarimizning go’zal fazilatlarini haqidagi misollar bejiz keltirilmadi. Ibratdan maqsad halol-harom masalasida o’ta qat’iyatli bo’lish, ularni bir-biridan ajrata olish – komil inson belgisi ekanini ta’kidlashdir.

Inson o’zi, oilasi, qaramog’idagi qarindosh-urug’ini halol mehnat bilan boqishi va mu tojlarga muruvvat qo’lini cho’zib, og’irini yengil qilishga intilishi lozim. Halollik jamiyat taraqqiyoti, insonlar halovati va farog’ati, o’zaro mehr-oqibatlilik uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Abduvosi SHONAZAROV, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi



QANDAY QILIB YETUK SHAXSGA AYLANASIZ?

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, buyuk sivilizatsiyalar avvalo ilm va kitobga suyanib yuksalganini ko'ramiz. Kitob – bu shunchaki qog'oz va siyoh emas, balki tafakkur, tajriba va ma'naviyat xazinasi. Kitob o'qigan inson fikrlaydi, fikrlagan inson esa jamiyatni oldinga boshlaydi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, muntazam kitob o'qish xotirani mustahkamlaydi, stressni kamaytiradi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yurtimizda ham kitobxonlik madaniyatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. 2026-yil 16-yanvarda qabul qilingan "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi Prezident

qarori mamlakatimizda muhim qadam bo'ldi. Bu yilgi qaror avvalgilarga qaraganda ancha amaliy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Unga ko'ra endi ko'proq grant va davlat buyurtmasi asosida kitob chiqarish, iste'dodli mualliflarni aniqlash va moddiy rag'batlantirish, kutubxonalar va ta'lim muassasalarini yangi nashrlar bilan ta'minlash, tarjima va nashr xarajatlarini qisman davlat zimmasiga o'tishi belgilandi. Yangi mualliflar va bolalar

adabiyotiga alohida e'tibor berish ham ko'zda tutildi.

Shuningdek, Prezident tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning to'rtinchi yo'nalishi aynan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan bejiz emas. Bu tashabbus doirasida maktab va oliy ta'lim muassasalarida kitob yarmakalari, "Eng faol kitobxon" tanlovlari, mutolaa haftaliklari yo'lga qo'yildi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda aholi mutolaa darajasi yuqori. Kitobxonlik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda huquqiy ong, fuqarolik madaniyati va innovatsion fikrlash ham yuksak bo'ladi.

Yoshlar uchun kitob – bu tayyor javoblar emas, balki fikrlashga undovchi savollardir. Mutolaa jarayonida o'quvchi

tahlil qiladi, taqqoslaydi, xulosa chiqaradi. Aynan shu jarayon mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino yoshligidayoq yuzlab kitoblarni mutolaa qilgani tufayli 16–17 yoshida yetuk tabib sifatida tanilgan. Alisher Navoiy esa mutolaa orqali nafaqat adabiyot, balki siyosat va davlat boshqaruvida ham yetuk shaxsga aylangan. Bu tarixiy misollar yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Kitob o'qigan inson voqealarga kengroq nigoh bilan qaraydi, axborotni tanqidiy tahlil qila oladi, yolg'on va haqiqatni farqlashni o'rganadi. Bugungi axborot oqimi kuchli davrda aynan shu ko'nikmalar yoshlar uchun nihoyatda muhimdir.

Guliston USPANOVA,
Kegeyli tumanidagi
5-maktabning kutubxona mudiri

Mulohaza

XXI asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlar davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot yoki texnika sohasini, balki inson tafakkuri, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Shu jarayonda "raqamli madaniyat" tushunchasi oddiy texnik ko'nikma emas, balki zamonaviy sivilizatsiyaning muhim mezoniga aylanib bormoqda.

Raqamli madaniyat inqilobi imkoniyatmi yoki xatar?

Raqamli madaniyat – bu shunchaki internetdan foydalanish emas. U insonning axborotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi, baholashi va tarqatishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Bugungi raqamli muhitda yashayotgan inson uchun axborotni izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, raqamli madaniyat bilim va axloq, texnologiya va tafakkur uyg'unligidir.

Bugungi axborot makoni insoniyat uchun mislsiz imkoniyatlarni yaratmoqda. Har bir kishi istalgan bilimni qisqa vaqt ichida egalashi, dunyoning istalgan nuqtasidagi odamlar bilan muloqot qilishi mumkin. Shu bilan birga, bu muhit inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kuchli vositaga ham aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, turli platformalar yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlarini va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Biroq har qanday imkoniyat o'zida xavfni ham mujassam etadi. Soxta axborotlar, manipulyatsiya, sun'iy ravishda shakllantirilgan "ommaviy fikr" bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurgan. Eng xavfli shundaki, inson asta-sekin mustaqil fikrlashdan ko'ra tayyor axborotni iste'mol qilishga o'rganib bormoqda. Bu esa tafakkurning yuzaklashuviga olib keladi.

Raqamli madaniyat masalasi, aslida, inson tafakkurining o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. Raqamli muhit tezkorlikni talab qiladi, ammo ko'pincha chuqur fikrlashni cheklaydi. Qisqa matnlar, tezkor xabarlar va sodalashtirilgan kontent insonni tez qabul qilish, ammo kamroq tahlil qilishga undaydi. Natijada esa insonning idrok qilish uslubi o'zgaradi.

Shu o'rinda muhim savol tug'iladi: texnologiyalar insonni rivojlantirayaptimi yoki uni boshqarayapti? Bu savolga aniq javob berish mushkul, ammo bir haqiqat ayon – agar inson raqamli muhitga ongli yondashmasa, u o'zining mustaqil fikrlash qobiliyatini yo'qotishi mumkin.

Raqamli madaniyat, ayni paytda, axloqiy mezonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Virtual makonda anonimlik, erkinlik va tezkorlik ba'zan mas'uliyatsizlikni keltirib chiqaradi. Bitta noto'g'ri yozilgan izoh yoki tekshirilmagan ma'lumot katta ijtimoiy rezonansga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun raqamli muhitda ham an'anaviy qadriyatlar – hurmat, mas'uliyat, halollik va bag'rikenglik ustuvor bo'lishi lozim.

Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli madaniyatni shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ular texnologiyalarni tez o'zlashtiradi, ammo har doim ham ularning mazmunini va ma'naviy jihatlarini chuqur anglay olmaydi. Shu bois, ta'lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki raqamli tafakkurni tarbiyalash vazifasi ham turibdi. Ya'ni yosh avlod axborotni tanqidiy qabul qila olishi, uni tahlil qilishi va undan to'g'ri xulosa chiqara olishi zarur.

Raqamli madaniyat nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot omili hamdir. Texnologiyalar yordamida jamiyatda samaradorlik oshadi, yangi imkoniyatlar yaratiladi, innovatsiyalar rivojlanadi. Ammo bu jarayon inson omilisiz, ya'ni madaniyat va ongli yondashuvsiz samarali bo'la olmaydi.

Qisqa qilib aytganda, raqamli madaniyat zamonaviy insonning ichki mezonidir. U texnologiyalardan qanday foydalanish emas, balki ular orqali qanday inson bo'lib qolish masalasidir. Agar jamiyat texnologik jihatdan rivojlanib, ammo ma'naviy jihatdan zaiflashsa, bu haqiqiy taraqqiyot emas. Shunday ekan, bugungi davr talabi – texnologiyalar bilan birga insonning o'zini, uning tafakkuri va madaniyatini rivojlantirishdir.

Sevara BOTIROVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
"Falsafiy va tarixiy fanlar"
kafedrasini mudiri

Dolzarb mavzu

Bitiruvchi – diplom bilan emas, ish bilan baholanadi

Bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim ko'rsatkichlaridan hamda dolzarb muammolaridan biri – bu bitiruvchilarning bandlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalari soni ortib borayotgan bir paytda, shunday savol tug'iladi: bitiruvchilar haqiqatan ham mehnat bozorida o'z o'rini topayaptimi?

So'nggi yillarda kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda har yili o'rtacha 500–600 ming nafar yoshlar turli ta'lim bosqichlarini tamomlab, mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Shundan taxminan 60–70 foizi birinchi yil ichida ish bilan ta'minlanadi. Biroq bu raqamlar ortida jiddiy tafovutlar yashiringan: bandlik darajasi yo'nalish, hudud va malaka sifatiga qarab keskin farqlanadi.

Masalan, texnika va AT yo'nalishidagi bitiruvchilarning bandlik darajasi nisbatan yuqori – 75–85 foiz atrofida. Chunki bu sohalarida talab barqaror va yuqori. Aksincha, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda bu ko'rsatkich ko'pincha 50–60 foizdan oshmaydi. Bu esa mehnat bozoridagi talab va ta'lim yo'nalishlari o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi.

Hududiy kesimda ham sezilarli farqlar mavjud. Yirik shaharlarda, xususan, poytaxtda bitiruvchilarning ish topish imkoniyati yuqori bo'lsa, viloyat va chekka hududlarda bu ko'rsatkich pastroq. Taxminlarga ko'ra, shaharlarda bandlik darajasi 70–75 foiz atrofida bo'lsa, ayrim hududlarda bu 50 foizga ham yetmaydi. Natijada ichki migratsiya kuchayadi, yoshlar ish izlab markazlarga intiladi.

Yana bir muhim jihat – mutaxassislik bo'yicha ishlash masalasi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ish bilan ta'minlangan bitiruvchilarning faqat 40–50 foizi o'z yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritadi. Qolganlari esa boshqa sohalariga o'tishga majbur bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatining emas, balki mehnat bozoriga moslashuv darajasining pastligi bilan bog'liq.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, rivojlangan davlatlarda bitiruvchilar bandligi o'rtacha 80–90 foizni tashkil etadi va ularning aksariyati o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlaydi. Bunga sabab ta'lim tizimi va ish beruvchilar o'rtasidagi mustahkam hamkorlik, amaliyot dasturlarining keng yo'lga qo'yilganidir. Aksariyat talaba o'qish davridayoq amaliy tajriba orttiradi va bitirgan zahoti ishga joylashadi.

Bizda esa muammo ko'proq nazariy bilimning ustunligi bilan bog'liq. Ko'plab ish beruvchilar "tayyor mutaxassis"ni izlaydi, biroq bitiruvchilar amaliy ko'nikmalar yetishmasligi sababli raqobatda yutqazadi. Natijada paradoks yuzaga keladi: bo'sh ish o'rinlari bor, lekin mos kadr yetishmaydi.

Shuningdek, norasmiy bandlik ham muhim masala. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, yoshlarning 20–30 foizi norasmiy sektordagi faoliyat yuritadi. Bu esa rasmiy statistikada bandlik ko'rsatkichlarini to'liq aks ettirmaydi va ijtimoiy himoya masalalarini murakkablashtiradi.

Muammoni hal etish uchun bir nechta yo'nalishda tizimli ishlar zarur. Avvalo, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish lozim. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim tizimini keng joriy etish muhim. Uchinchidan, yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimini maktabdan boshlab yo'lga qo'yish kerak.

Agar diplom real ish o'rniiga aylana olmasa, ta'lim tizimining samaradorligi savol ostida qolaveradi. Demak, bugungi kun talabi aniq: ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etish – ertangi taraqqiyot garovi.

Javohir YO'LDOSHEV,
Namangan davlat pedagogika instituti "Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash" bo'limi boshlig'i

Ehtirom

“U ta’lim uchun tug’ilgandek...”

Maktab rahbari qanday bo’lishi kerak? Bu haqda o’ylaganimizda ko’z oldimizga shak-shubhasiz ta’lim va tarbiya uchun umrini baxshida qilgan, o’z kasbini va maktabini sevgan, uni yuksaltirish uchun tinimsiz izlangan, erta-yu kech ishlagan, bolalarni sevgan ziyoli inson gavdalanadi. Hatto, 90-yillarda o’zi o’qigan va keyinchalik rahbarlik qilgan maktabini ta’mirlash uchun ota hovlisining bir qismini sotgan fidoyi insonlar haqida otamdan eshitganman. Xalqimiz orasida ta’limni yuksaltirish va yosh avlodga saboq berishni hayotining mazmuniga aylantirgan ana shunday ziyoli insonlarning borligi kelajakka bo’lgan ishonch va umidni yanada mustahkamlaydi. Bugun ham ishini sevgan, kelajak avlodga sifatli va yuksak ta’lim berish uchun qayg’uradigan pedagoglar va maktab rahbarlari bisyor. Uchtepa tumanidagi 81-maktab direktori Ziyoda Haydarova ham ana shunday insonlardan biri.

Ziyoda opa ilk pedagoglik faoliyatini o’zi saboq olgan Mirzacho’l tumanidagi 8-maktabda boshlang’ich sinf o’qituvchiligidan boshladi. So’ng Toshkent shahridagi 181-maktabda o’qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Nafis san’at litseyida direktor o’rinbosari, Chilonzor tumani xalq ta’limi bo’limida uslubchi vazifalarida ishladi. Qariyb 17 yildan buyon Uchtepa tumanidagi 81-maktab direktori vazifasida faoliyat yuritadi.

Bu maktab nafaqat tumanda, balki poytaxt maktablari orasida ham ta’lim sifati va ijobiy muhiti bilan namuna ko’rsatib kelayotgani hech kimga sir emas. Maktabda tajribali va bilimli o’qituvchilar jamoasi jamlangan, va albatta, bunday kuchli pedagogik jamoani shakllantirish va uni yillar davomida ushlab turish rahbarning mahoratiga, oqilona ish yuritishiga bog’liq.

Ilm dargohida O’zbekiston Respublikasi Xalq o’qituvchisi Rahmatilla Karimov, Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Malika Salimova va 15 nafar Xalq ta’limi a’lochilari faoliyat ko’rsatadi. “Bunday kuchli kadrlarga rahbarlik qilish doimiy ravishda o’z ustida ishlash, izlanish kabi mas’uliyatni yuklaydi. Shuning uchun men doim izlanishdaman”, deydi qahramonimiz.

Muassasaga kirib borsangiz o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida erkin va samimiy, ochiq muloqot muhitini ko’rasiz. O’qituvchilar bilan suhbatlashsangiz ularning har birida kasbi va ishi bilan bog’liq aniq maqsad borligini, iste’dodli o’quvchilarini yuzaga chiqarish istagi, qaysidir birining muammosi ustida ishlash mas’uliyati bilan band ekanini anglaysiz. Maktabda bo’sh qolgan sinfxonaning o’zi

yo’q, darsdan so’ng o’quvchilar qo’shimcha darslar va to’garaklarga qatnashishadi. O’quvchilar ko’proq zamonaviy kasblar va qo’l mehnatiga doir mashg’ulotlarga jalb etiladi. Muassasa hududida ekobog’, issiqxona ham tashkil etilgan bo’lib, u yerdagi gullar va daraxtlarni o’stirishda ham o’qituvchi va o’quvchilar ishtiroq bilan mehnat qilishadi.

2023-yili dunyoning 77 davlatidan maktablar ishtirok etgan “Ecoschool Uzbekistan” loyihasida Markaziy Osiyoda birinchi marta o’zбек bolasi dunyoning birinchi raqamli universiteti – Massachusetts Institute of Technology(MIT) talabasi bo’ldi, bu ham bo’lsa 81-maktab o’quvchisi Abdulloh Mahmudov edi. Ger-



maniya, Yaponiya, Angliyadagi nufuzli universitetlarda o’qiyotgan o’quvchilarning yutuq va muvaffaqiyatlarida ham maktabning, shu dargohdagi ustozlarning, maktab direktorining mehnatlari beqiyos. Shuning uchun ham maktabni bitirgan o’quvchilar qayerda, qaysi kasbda ishlayotgan bo’lsa-da, o’qigan maktabiga yordam beradi, sharoitini



yaxshilash, ta’mirlash ishlariga hissa qo’shib kelishadi. Xususan, 2019-yili “Real House” kompaniyasi ta’lischisi Isroil Yunusov tashabbusi bilan muassasa to’liq rekonstruksiya qilinib, obod maskanga aylantirildi.

– Kasbinga mehrim har bir ishga e’tiborli, talabchan bo’lishga undaydi, – deydi Ziyoda Haydarova. – O’qituvchilar oilasida tug’ilganman. Dadam jismoniy tarbiya, onam boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lgan. Tabiiyki, o’qituvchilikka bo’lgan muhabbatim oilada shakllangan. Yaqindagina Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qaytadan bunyod etilgan Imom al-Buxoriy majmuasida menga ism qo’yilib, azon aytilgan. “Ismi bilan tug’ilibdi-ku bu qiz, Ziyoda bo’lsin deb aytgan ekan” imom. Shu majmua yaqinidagi Choshtepa qishlog’ida tug’ilganman. Men tug’ilishim bilan otam-onam Jizzax viloyatiga Mirzacho’lnio’zlashtirishda qatnashish uchun ketishgan va ukalarim Jizzaxda tug’ilgan. U yerda ulg’aydim, ilk saboqni oldim va o’qituvchilikni ham o’sha yerda boshladim.

Institutni bitirib, Mirzacho’lga dars berish uchun qaytgan talabani ko’z oldingizga keltiring, qanday kuch, maqsad va rejalar bilan borgan edim. Poytaxtda olgan bilimlarimni o’z qishlog’imda katta rejalar uchun safarbar etaman degan maqsadda ming hayajon bilan borganim zahoti paxta dalasiga olib chiqib ketilganmiz. Ilk

darsim paxta dalasida o’zim hech qachon kutmagandek, istamagandek – armon bilan kechdi. Paxta dalasida o’quvchilarimga g’azal va she’rlar aytirib ertangi kunga ishonchimni so’ndirmaslikka tirishganman. Mana, bugungi kunga kelib, biz o’qituvchilar paxta dalalaridan, majburiy mehnatdan ozod etildik. O’qituvchining mavqeyini oshirish, o’z ustida ishlashga imkoniyatlar yaratish uchun qanchadan-qancha qulayliklar yaratilayapti, islohotlar amalga oshirilayapti. 2025-yili Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida malaka oshirish imkoniyatiga ega bo’ldim. Dunyoning nufuzli universitetida malaka oshirish jarayoni menga juda katta taassurotlar, yangi bilimlar, g’oyalar berishi bilan birga, kasbimdan yanada faxrlanish hissini ham tuydirdi. Ota-onamga “Mirzacho’lning qizi o’qituvchi bo’lib, Kembrijda malaka oshiradi deb kim o’ylabdi, deysiz”, deya video jo’natganimda, dadam “Orzular bir kuni amalga oshadi, qizim” deb aytdi. Haqiqatdan ham, bugun har bir tumandan ilg’or o’qituvchilar xorijiy nufuzli universitetlarga malaka oshirish uchun yuborilayapti, bu ta’lim tizimidagi katta islohotlar natijasi, o’qituvchilarni paxta dalalaridan “olib chiqib”, ko’pqavatli uylar maydonini supurishdan soqit etib, xorijga o’z ustida ishlash uchun yuborilishi orzularimiz ijobati-ku!

– Ziyodaxon rahbar sifatida ham, pedagog sifatida ham har tomonlama namuna bo’lishga arzigulik inson, – deydi O’zbekiston Xalq o’qituvchisi Rahmatilla Karimov. – Uning o’z oldiga qo’yg’an eng katta talabi – doimiy izlanish, o’sishdan to’xtamaslik. Pedagog va rahbar uchun bu eng kerakli xislat. U maktabni rahbar sifatida shunchaki boshqarmaydi, balki jamoaga yo’l ko’rsatadi, yangi marralarga yetish uchun ishonch beradi va har bir o’qituvchining, o’quvchining salohi-

yatini ochishga intiladi. U juda bolajon, hech bir o’quvchining taqdiriga befarq qaramaydi. Ziyodaxonni ish kabinetida o’tirgan holda juda kam uchratamiz. U doimo jarayon ichida – goh boshlang’ich sinflarda, goh yuqori sinflarda bo’lib, ta’lim sifati va dars jarayonlarini kuzatayotgan, o’quvchilar bilan suhbat qurayotgan, o’qituvchilarni eshitayotgan bo’ladi. Shu bilan birga, maktab hududini obodonlashtirish, sport-sog’lomlashtirish ishlari, ekologik tadbirlarni tashkil etishda ham faol ishtirok etadi.

– Ziyoda Haydarova maktabga rahbar bo’lib kelishdan oldin muassasamiz reyting bo’yicha Toshkent shahri maktablari ichida eng oxirgi o’rinlarda turardi, – deydi maktabning matematika fani o’qituvchisi Mavjuda Isamuhamedova. – U direktor bo’lgan dastlabki yillardan boshlab o’quvchilar bilimini kuchaytirish, malakali mutaxassislarni jalb etish, fan o’qituvchilarining tajribasi va mas’uliyatini oshirishga harakat qildi. Vaziyat o’zgarib, o’quvchilar fan olimpiadalari-yu sport tanlovlari faol qatnasha boshladi. Muvaffaqiyatlar soni sezilarli darajada ortdi. Mening 29 yillik ish faoliyatim shu maktabda kechdi, shuncha yillar mobaynida maktabning kechagi va bugungi kunini, barcha rahbarlarning salohiyatini ko’rgan faxriy pedagog sifatida aytamanki, Ziyodaxon bu maktabning eng munosib rahbari. U ta’lim uchun tug’ilgan. Mana bu yil u 50 yoshga to’ladi. Biz maktab jamoasi fursatdan foydalalanib, Ziyodaxonning keyingi ishlari ham muvaffaqiyatlar tilaymiz. Ta’lim-tarbiya yo’lida qilayotgan barcha sa’y-harakatlari uchun undan minnatdormiz. Bu yo’lda hech qachon charchamasin, doim yangi g’oyalar, shijoat bilan yonib, olamni nurga, ziyoga to’ldirib yursin!

Maqola so’ngida yana bir narsani e’tirof etishni lozim topdik. Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-apreldagi “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga ko’ra Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda har bir viloyatda bittadan umumiy o’rta ta’lim muassasalarida 10-11-sinf o’quvchilarini pedagog kasbiga tizimli tayyorlash uchun pedagogik sinflar tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan edi. Toshkent shahri bo’yicha ushbu pedagogik sinflar biz bugun tilga olgan Uchtepa tumanidagi 81-maktabda tashkil etildi. Poytaxt maktablari orasida bo’lajak pedagoglarni tayyorlashga safarbar etilgan maxsus sinfning aynan shu maktabda tashkil etilgani ham ushbu muassasaning malakali va mahoratli ustozlariga bildirilgan ishonch namunasidir. Bu yil mazkur sinf o’quvchilari maktabni bitirmoqda. O’ylaymizki, bu dargoh yana ko’plab mohir pedagoglarni, yetuk kadrlarni, el-yurt ravnaqi uchun hissa qo’shadigan yoniq qalblarni yetishtirib beradi.

Zilola MADATOVA,
“Ma’rifat” muxbiri

Elda aziz

Daraxt tomiridan kuch oladi, meva beradi, soya beradi. Imorat mustahkam poydevori bilan qudratli. Tagzamini bilan qudratli bo'lgan jamiyatning iqboli, elning istiqboli porloq. Buning manbai ilm-u ta'lim xosiyati va tarbiyaning mohiyatidan. Boshqacha aytganda, ilmning sifati ta'lim-tarbiyaning samaradorligini belgilashi tayin.

Shuning uchun ham davlatimiz rahbari barcha sohalaridagi yutuqlar manbai ilmning kuchi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlashi bejiz emas. Natijadorlik esa o'qituvchining zahmati va olimning tinimsiz izlanishlariga daxldorligini e'tirof etadilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilmfan, o'qituvchi va ustozlarning jamiyatdagi o'rnini yuksak baholab, ularni "Uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni" deb atagan, najot ta'lim va bilimda ekanini, shuningdek, o'qituvchilarning mashaqqatli mehnatini qadrlab, ularning maqomini oshirishga qaratilgan ishlarini davom ettirish lozimligini ta'kidlagan. Davlatimiz rahbari o'qituvchilarning tajribasi va mahoratiga tayanishini, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurligini aytib, o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirishga chaqirgani bejiz emas.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda". Prezident Uchinchi Renessans ustuni: bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygoh professor-o'qituvchilarini Yangi O'zbekistonni bunyod etishning asosiy ustunlari sifatida ko'radi. O'qituvchilarning bilim va tajribasiga, pedagogik mahoratiga ishonch bildiradi.

Bu esa o'z umr mazmunini ta'lim-tarbiyada deb bilgan, shu yo'lda zahmat chekkan, fidoyi, faol ustozlarni, pedagog, olimlarni ardoqlash, ulardan o'rganish zarurligini talab etadi. Chunki ular hayotiy tajriba makoni, ilm-u ta'lim koni. Ularning o'gitlaridan, ilmiy izlanish va tajribalaridan oziqlanish davr talabi. Zotan, ustoz-shogird an'anasi – taraqqiyot tantanasidir.

O'zbek pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot bosqichi yirik olimlar, ilmiy maktab yaratgan mutafakkir pedagoglar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Ana shunday siymolardan biri – pedagogika fanlari doktori, akademik Risboy Jo'rayev bo'lib, uning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati milliy ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Uning ilmiy tadqiqotlari pedagogika jarayonining mohiyatini chuqur falsafiy-metodologik asosda ochib berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Olim ta'limni jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillaridan biri sifatida baholab, uni inson kapitali, ma'naviy taraqqiyot va milliy istiqloq g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etadi. Uning ilmiy ishlarida ta'lim va tarbiya birligi, pedagogik faoliyatda insonparvarlik va milliy qadriyatlar uyg'unligi, o'qituvchi shaxsining kasbiy, ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyati, pedagogik tafakkurni modernizatsiya qilish masalalari chuqur ilmiy tahlil qilingani e'tiborga molik.

Akademik Risboy Jo'rayev pedagogik bilimni statik holatda emas, balki dinamik, ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'un holda talqin etishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv uning ilmiy ishlariga zamonaviylik va amaliy qiymat bag'ishlaydi. Ustozning ilmiy-pedagogik faoliyati faqat nazariy tadqiqotlar bilan

cheklanib qolmay, ta'lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan aniq tavsilyalar bilan boyitilgan.

Olim tomonidan yaratilgan ilmiy monografiya va darslik, o'quv qo'llanmalarini sinchiklab kuzatish asnosida ustoz ilgari surilgan g'oyalarni shunday tasniflash mumkin. Bular pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangilash, ta'lim sifatini baholash mezonlarini takomillashtirish, innovatsion va integrativ ta'lim modellari joriy etish asnosida ularni

ILMGA KON, MEHRGA MAKON USTOZ

ta'lim yo'nalishlarida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildirishdan iborat.

Olimning ilmiy qarashlarida o'qituvchi – faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi yetakchi shaxs sifatida talqin etiladi. Bu g'oya bugungi globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Akademikning ilmiy maktabi va ustozlik an'analari ham ibratlidir. Uning ilmiy-pedagogik merosida ustozlik faoliyati alohida o'rin tutadi. R.Jo'rayev rahbarlik qilgan ilmiy-tadqiqotlar, tayyorlangan doktorlik va falsafa doktori(PhD) dissertatsiyalari, shakllangan ilmiy maktab o'zbek pedagogika fanining uzluksiz rivojiga xizmat qilmoqda. Akademik tomonidan shakllantirilgan ilmiy maktab nazariya va amaliyot uyg'unligi tamoyiliga asoslangan. Uning shogirdlari olib borgan tadqiqotlarda ham ta'lim amaliyotiga tayanish, real pedagogik jarayonlarni tahlil qilish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Bu ilmiy maktab doirasida tayyorlangan dissertatsiya ishlari ta'lim muassasalari faoliyatida qo'llanilayotgani, amaliy natijalar berayotgani alohida ahamiyatga ega.

Ustozning ilmiy maktabida bevosita 45 nafar shogird tarbiyalandi, ilmiy-tadqiqot ishlarini yakunlab diplom egasi bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi. Ularning 16 nafari fan nomzodi, falsafa doktor(PhD)lari va 29 nafari fan doktori. Ustoz rahbarligida ilmiy-tadqiqot olib borgan shogirdlar bugungi kunda yurtimizda, xorijda ishlab chiqarish, ta'lim va tarbiyaning turli sohalarida yetuk kadr sifatida faoliyat yuritmoqdalar.

Ustoz o'z shogirdlariga ilmiy bilim bilan bir qatorda tadqiqot madaniyati, ilmiy halollik, mas'uliyat va fidoyilik, pedagogik etika kabi yuksak qadriyatlarni ham singdirib kelmoqda. Bu esa uning faoliyatini nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham yuksak darajaga ko'taradi.

U ta'lim islohotlariga munosabatda ham ilmiy jasorat namunasini ko'rsatib kelgan olimdir. Pedagog olim mavjud muammolarni ochiq tan olish, ularni ilmiy asosda hal etish tarafdori bo'lgan. Ustozning muallifligida 25 ta monografi-



ya va 900 dan ortiq ilmiy maqola nashr qilingan bo'lib, soha doirasida 30 dan ortiq maqolalari xorijiy davlatlarning nufuzli nashrlarida chop etilgan. Ko'pgina o'quv fanlarining zamonaviy elektron

resurslarini ishlab chiqish asnosida 16 ta dasturiy mahsulotlar bo'yicha patent muallifidir.

Bu yutuqlar katta mehnat va izlanishlarning mahsuli, uning manbai esa ta'limga bo'lgan mehr, muhimi fanga, vatanga bo'lgan qaynoq muhabbatdan desak, o'rinni bo'ladi.

To'g'ri, o'zbek pedagogika fani taraqqiyotida ta'lim nazariyasi bilan amaliyot uyg'unligini izchil tarzda asoslab bergan, bu g'oyani ilmiy konsepsiya darajasiga ko'targan olimlar kam emas. Biroq pedagogik fikrning faqat nazariy darajada qolib ketmasdan, ta'lim jarayoniga tatbiq etilishini hayotiy misollar, ilmiy tavsiyalar va amaliy natijalar bilan isbotlab bergan siymolar alohida e'tirofga loyiq. Ana shunday zabardast olimlar safida pedagogika fanlari doktori, akademik Risboy Jo'rayevning o'rni beqiyosdir.

Ustoz olimning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyatida ilmiy jasorat, fikriy mustaqillik va pedagogik mas'uliyat uzviy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Uning ta'lim tizimida nazariya va amaliyot bog'liqligi haqidagi qarashlari nafaqat pedagogika fanining rivojiga, balki milliy ta'lim islohotlarining ilmiy-metodologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Ilmiy jasorat – bu mavjud qarashlarni takrorlash emas, balki ularni tanqidiy qayta ko'rib chiqish, yangi yondashuvlarni ilgari surish, ilmiy haqiqat yo'lida mas'uliyatni zimmasiga olishdir. Akademik Risboy Jo'rayevning ilmiy faoliyati aynan ana shu sifatlar bilan tavsiflanadi.

Ustoz olim pedagogika fanini jamiyat hayotidan uzib qo'ymaslik, ta'lim nazariyasini real ta'lim amaliyoti bilan bog'lash zarurligini ilmiy asoslab berdi. Uning fikricha, agar pedagogik nazariya ta'lim muassasalarida qo'llanilmasa, u holda u ilmiy qiymatini yo'qotadi. Shu bois olim o'z tadqiqotlarida doimiy ravishda amaliyotga tayanadi, ta'lim muassasalari tajribasini tahlil qiladi va shu asosda umumlashtirilgan ilmiy xulosalarni ilgari suradi.

U pedagogika fanining markaziy muammosi sifatida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni ko'radi. Uning

ta'kidlashicha, ko'p hollarda ilmiy-tadqiqotlar abstrakt nazariy xulosalar bilan cheklanib qoladi, ta'lim muassasalari esa ilmiy tavsiyalardan bexabar holda faoliyat yuritadi. Ustoz bu holatni bartaraf etish uchun pedagogik tadqiqotlar quyidagi tamoyillarga tayanishi lozimligini ilgari suradi: ta'lim jarayonini jonli ijtimoiy tizim sifatida o'rganish; pedagogik tajribani ilmiy tahlil qilish; nazariy xulosalarni amaliyotda sinab ko'rish; olingan natijalar asosida nazariyani takomillashtirish.

Ta'lim tizimida ilmiy yondashuv va amaliy natija muhim. Akademik Jo'rayev ta'limni ijtimoiy taraqqiyotning strategik omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, ta'lim tizimidagi har qanday islohot chuqur ilmiy tahlilga tayanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Olim ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodlarini takomillashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. Uning ilmiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar ta'lim muassasalarida samarali qo'llanib kelmoqda.

Jo'rayevning ilmiy qarashlarida o'qituvchi shaxsi markaziy o'rinni egallaydi. Ustoz olim fikriga ko'ra, nazariyani amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy kuch – bu o'qituvchidir. Agar o'qituvchi pedagogik nazariyani chuqur anglamasa, eng ilg'or konsepsiyalar ham qog'ozda qolib ketadi. Shu bois olim o'qituvchining ilmiy dunyoqarashi, kasbiy kompetensiyasi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ger menevtik salohiyati, ijtimoiy mas'uliyati kabi jihatlarini uzviy birlikda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Olimning fikricha, ta'lim tizimini isloh qilishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, milliy tajribaga tayanish, xalqaro yutuqlarni tanqidiy qabul qilish, pedagogik jamoatchilik fikrini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashuv sharoitida ham akademik Jo'rayevning nazariya va amaliyot uyg'unligi haqidagi qarashlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan yangi muammolar bu g'oyalarni yanada dolzarb qiladi.

Akademikning ilmiy-pedagogik faoliyatida ilmiy jasorat va amaliy mas'uliyat uyg'un holda namoyon bo'ladi. Uning ta'lim tizimida nazariya va amaliyot bog'liqligi haqidagi qarashlari milliy pedagogika fanining muhim yutug'i sifatida baholanadi. Ustoz olimning ilmiy merosi kelgusi avlod pedagoglari va tadqiqotchilari uchun mustahkam ilmiy-metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, akademikning ilmiy-pedagogik faoliyati – ilmga sadoqat, ta'limga mas'uliyat va kelajak avlod taqdiriga daxldorlik va fidokorlikning yorqin namunasidir. Uning ilmiy merosi, pedagogik g'oyalari va ustozlik an'analari milliy ta'lim tizimi taraqqiyoti uchun mustahkam ilmiy-metodologik tayanch bo'lib xizmat qilishda davom etmoqda.

Zeroki, ilm-u tajribaga kon, ibratga, mehrga makon bo'lgan ustozni 80 yoshga to'lishi munosabati bilan samimiy qutlar kanmiz, hali ko'plab munosib izdoshlar, shogirdlarni yetishtirishiga umidvormiz. Bu yo'lda ustozga sog'lik-salomatlik, omad va metindek iroda yor bo'lishini tilab qolamiz.

Rahimboy JUMANIYOZOV,
professor, O'zbekiston Yozuvchilar va
Jurnalistlar uyushmalari a'zosi,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti
matbuot xizmati rahbari



Astanov Otabek Mirjonovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Ruhiiy patologiyasi mavjud bemorlarda ixtisoslashgan stomatologik diagnostika va yordam ko'rsatishni takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Amonova Dildora Bahodirovnaning 03.00.07 – O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosligi bo'yicha "Soya (Glycine max L.) o'simligining fiziologik va biokimyoviy jarayonlariga mikrobiologik preparatlarning ta'siri" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.24.01 ilmiy kengashning 2026-yil 2-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi, 266-uy.
Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90;
e-mail: igebr@academy.uz, genetika@exat.uz; veb-sayt: www.genetika.uz

Tolibova Zevar Hojiyevnaning 03.00.09 – Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "Molekulyar markerlar yordamida no'xatning (Cicer arietinum L.) mahalliy va jahon kolleksiyasi namunalarini sho'rga chidamliligi bo'yicha genotiplash" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.24.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi, 266-uy.
Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90;
e-mail: igebr@academy.uz, genetika@exat.uz; veb-sayt: www.genetika.uz

Jumabayeva Gulnara Usmanbayevnaning 11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyo ixtisosligi bo'yicha "Tog' daryolari muallaq oqizqlarining genetik tahlili va ularni hisoblash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Tashkent shahri, Yunusobod tumani, Bodomzor yo'li 1-tor ko'shasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-83-25, 235-83-29; e-mail: ipfo@dirshi.uz; e-xat: gmiti@exat

Anvarov Shukurulloxon Maxsudxon o'g'lining 11.00.07 – Geoinformatika ixtisosligi bo'yicha "Geoaxborot texnologiyalari asosida Toshkent shahrida yerdan foydalanish va hududiy kengayish jarayonlarini tadqiq etish masalalari" mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 31-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-14, 246-67-71; e-mail: nauka@nuu.uz, rector@nuu.uz

Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'lining 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha "Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

Bobodo'stov Ulug'bek Kenja o'g'lining 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda tish qatorlari anomaliya va deformatsiyalarni ortodontik davolashda kelib chiqadigan gingivitlarni davolashni takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Eshonqulov G'olibjon Turaqulovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Buxoro viloyatida tish-jag' tizimidagi anomaliyalarning uchrashini o'rganish, erta tashxislash va davolash" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Sharipov Nodir Komilovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Odontogen osteomiyelitlar erta tashxisi, kasallik yakuniy istiqboli va profilaktikasi klinik-laborator jihatlarining bog'liqligi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Hasanov Muhridin Hayotovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosliklari bo'yicha "Surunkali uveit diagnostikasi va monitoringining klinik-immunologik xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Turdiyeva Dilnavoz Olimovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Issiq iqlim sharoitida yashovchi ayollarda fiziologik homiladorlik davrida sitokinlar ishlab chiqarish dinamikasi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Rahmatov Karim Raximovichning 14. 00 13 – Nevrologiya hamda 14.00.28 – Neyroxirurgiya ixtisosliklari bo'yicha "Bel-dumg'aza sohasidagi "Operatsiya qilingan umurtqa pog'onasi sindromining klinik, nevrologik asoratlari va davolashga radiochastotali ablyasiya yordamida yo'ndashuv" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xakimova Maxsuna Mamaraxim qizining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "O'rta tolali g'ozada tola chiqimi va chigitida moy miqdori yuqori bo'lgan seleksion ashyolar yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Mirzabdullayev G'olibjon Nurali o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Kuzgi yumshoq bug'doyning hosildor, kleykovina miqdori yuqori va stress omillarga bardoshli seleksion ashyolarini yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt:www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Toshev Tajiddin Ungboyevichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Qayta tiklanuvchan energiya manbalarida ishlovchi elektr stansiyalari elementlarining tarkibini optimallashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika univesiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Raimjonov Rustambek Ravshanbek o'g'lining 14.00.21 – Stomatologiya hamda 14.00.02 – Morfologiya ixtisosliklari bo'yicha "Ko'krak yoshidagi bolalarda tishlar taraqqiyotining klinik-morfologik xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 11-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: sammu@sammu.uz



Qo'ng'iroq chalinguncha

Bahor g'unchalari... gul bo'lsin!

nosib qiz deb Xonzodani tanladik. Nasib etsa, sovchi bo'lib keldik.

Zumrad opaning yuragi gursillab urib ketdi. Bir xil qarashda indamay qoldi va allaqanday xokisorgina orzularga cho'mdi...

Ertasi kuni Zumrad opa qizini yoniga chaqirdi.

Xonzoda hovlida darsga oid daftarlarini ko'zdan kechirayotgan edi.

– Qizim, ichkariga kir, senga gapim bor.

Xonzoda onasining jiddiy ohangini sezdi va sekin uyga kirdi.

– Nima bo'ldi, oyi?

Zumrad opa dastro'molining uchini o'ynagancha bir muddat o'ylanib turdi, so'ng shoshilmay gap boshladi:

– Kecha sovchi keldi. Hasanboyning o'g'li Sardordan... – Xonzodaning rangi oqarib ketdi.

– Nima?!

Zumrad opa biroz kalovlandi va yana gap boshladi:

– Hasanboy diyonatli inson, oilasi to'q. O'g'li ham yaxshi yigit, onasi ham juda mehribon, qiynalmaysan, bolam.

Xonzoda tushunib yetdi, bu shunchaki onasining fikri emas, balki allaqachon qabul qilingan qaror edi. U esa bu qarorga hech qanday ta'sir qila olmasdi.

– Oyi... men hali turmushga chiqishga tayyor emasman...

Zumrad opa lablarini qattiq tishladi.

– Qizim, hech kim bilib tug'ilmagani, vaqti bilan o'rganasan. Hayotning o'zi o'rgatadi, qiz bolaning qismati shu, borgan joyingda hamma narsani o'rganasan.

Xonzoda ko'zlarini keng ochib, onasiga tikildi, ichida qandaydir alam, qandaydir hayajon g'imirlab ketdi.

– Lekin men o'qishga kirishni xohlagandim...

Zumrad opa bosh chayqadi:

– O'qish degani hamma narsani hal

qilmaydi, bolam. O'qishga kirsang, o'qitishadi. “Tengi chiqsa tekin ber” deyishadi qadimgilar, bu gaplar bekor-gamasdir, bolam. U oilada baxtli yashaysan, Xudo xohlasa. Hech narsaga muhtoj bo'lmaysan. Biz senga yomonlikni ravo ko'rarmidik...

Shunday qilib sovchilarga rozilik berildi. Xonzodaning orzulari ko'p, o'qishga ishtiyoqi baland edi. Ikki yo'lning orasida jim, xayollari chalkashib qolaverdi.

Sovchilar kela boshlaganini eshitgan mahalla faollari Ra'no opa hamda mahalla raisi Jo'ravoy aka yetib kelishdi, Zumrad opaga nasihat qilishdi:

– Qizingiz hali yosh, Zumrad opa. O'qisin, hunar o'rgansin. Bugungi zamonda erta turmushning oqibati qanday bo'lishini ko'ryapsiz-ku...

Xonzodaning maktabdagi ustozlari ham tushuntirishga harakat qilishdi:

– Zumrad opa, Xonzoda juda tirishqoq qiz. U kelajakda buyuk ishlar qila olishiga ishonamiz. Shoshilmang, opajon, afsuslanmaysiz, o'qishini davom ettirsin, o'qishga topshirsin...

Zumrad opa bu gaplarga indamadi, ammo inobatga ham olmadi. Xonzodaning to'yi dabdabali boshlandi. U keclinlik libosini kiydi, ammo yuragining tub-tubida qandaydir og'riq bor edi. Turmushi boshlanganidan keyin hayoti butunlay o'zgarayotganini his qildi. U bu hayotga tayyor emasdi. Erining yaxshi yigitligi rost, dastlab Sardor uni ehtiyot qildi, mehr ko'rsatdi. Ammo oilaviy hayotdagi majburiyatlar Xonzodaning bo'yniga og'ir yuk bo'lib tushdi. Bir necha oy o'tgach, yana boshqa muammolar paydo bo'ldi.

Oradan bir yil o'tgach mahallada g'iybatlar boshlanib ketdi: “Sardorning xotini hali ham homilador bo'lmabdi”, “Turmush qurganiga ham ancha bo'ldi-ku”, “Ehtimol o'zi aybdordir”.

Bu gaplar tez orada qaynonasining qulog'iga yetdi. Bir kuni u Xonzodani oldiga chaqirib so'radi:

– Qizim, o'zingni tekshirtirdingmi?

Xonzoda yerga qaradi:

– Yo'q... hali...

– Bunday bo'lmaydi, inson hayoti farzand bilan go'zal va baxtli... Yosh o'tib ketsa, keyin bola bo'lmasligi mumkin!

U bu gaplarni Sardorga ham aytdi. Sardor hech nima demadi. Ammo uyga kech qaytadigan, ishda tuni bilan qolib ketadigan odat chiqardi. Ba'zan ichib kelar, mastlikda esa har xil gaplar bilan Xonzodaning dilini yanada xufton qilardi...

Xonzodaga bosim kundan kunga kuchayib borardi. Qaynonasi doimiy tergap turar, erining e'tibori esa kamayib borardi.

Kunlarning birida Xonzoda onasining uyiga bordi. Zumrad opa uni iliq kutib oldi.

– Qizim, qanday yashayapsan?

Xonzoda hech narsa demadi, lekin ko'zlaridagi mung, alamli dardni sezish qiyinmasdi... Zumrad opaning yuragi ezildi:

– Nima bo'ldi, bolam?

– Oyi... men tayyor emas ekanman...

Zumrad opa indamay qoldi. Ich-ichidan o'zini aybdor his qildi. Chunki qizining orzularini yulib, uning murg'ak qalbini katta hayot izmiga tashlab, erta turmush qurishga majburlagan o'zi edi.

Xonzoda yerga qaradi.

– Balki... Men ham o'qishim kerak edi... O'zimni, hayotni tushunishim kerak edi... Balki shunda hammasi boshqacha bo'larmidi?..

Zumrad opa chuqur xo'rsindi. U endi tushunib yetgandi. Lekin kech... nozikkina gulg'unchasini ochilmasdan so'ldirganini his qildi va qattiq pushaymon bo'ldi!

Farzida NURMATOVA,
Chiroqchi tumanidagi
8-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

To'rtliklar

Moy-pilik do'st ekan, misol sham ko'rdim.
Shamning yonishida ajib g'am ko'rdim.
Biri-biri uchun kuyarkan do'stlar,
Shu bois chinakam do'stni kam ko'rdim.

Quadrat qo'li ila torni keng qildi.
Kichik bir zarrani ming-u ming qildi.
Tarvuzning oldida tariqdek edi,
Oyni oftob bilan birdek teng qildi.

Hech kimga dunyoni qizg'anma, inson,
Hammada yashashga bor bunda imkon.
Qara, qumursqaning bir kunlik rizqi
Qo'lingdan to'kilgan zarra uvoq non.

Xudoyberdi KOMILOV

Dildan tomgan tomchilar

O'quvchiga kitob o'qitgan o'qituvchi haqiqiy o'qituvchi emas, o'quvchida kitob o'qishga muhabbat va ishtiyoq uyg'ota olgan o'qituvchi haqiqiy o'qituvchidir.

Sinfga kirib dars o'tishdan ko'ra, o'quvchilar qalbiga kirib dars o'tgan o'qituvchi o'quvchilarga o'z faniga nisbatan muhabbat uyg'ota oladi.


Millati, dini, kelib chiqishidan qat'i nazar, o'z o'quvchisini farzandidan ham ustunroq seva oladigan o'qituvchilar o'quvchilar orasida ham, xalq orasida ham hurmatga sazovordir.

Ona tili va adabiyot fanidan dars o'tishni tirik-chilik vositasi deb ishlab kelayotgan o'qituvchilar emas, o'z fanini san'at darajasiga ko'tara oladigan fidoyi ijodkor o'qituvchilar bolalar qalbiga ezgulik urug'ini socha oladi.

Majruh til bilan millat shakllanmaydi.

O'quvchini niholga, bilimni suvga o'xshataman. Suv yetarli bo'lmasa nihol quriydi. Qurigan nihol na meva beradi, na soya.

Po'lat MANSUR,
faxriy o'qituvchi



UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

Toshkent filiali

kafedralardagi vakant va qayta saylanadigan lavozimlarga tanlov e’lon qiladi

Kafedra nomi	Lavozimlar				
	Kafedra mudiri	Dotsent	Katta o‘qituvchi	O‘qituvchi	Stajyor o‘qituvchi
Tillar kafedrası	1	1	1	1	1
Tabiiy fanlar	1		1	1	1
Aniq fanlar	1		1	1	
Ijtimoiy-gumanitar fanlar	1			1	1
Iqtisodiyot	1	1	1	1	1
Jami	5	3	4	5	4

Ariza va hujjatlar e’lon qilingan kundan boshlab 1 (bir) oy muddat ichida qabul qilinadi.
Hujjatlar quyidagi manzilga yuboriladi: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Yakkabog‘ MFY, Gavhar ko‘chasi, 1-uy.
Telefonlar: (55) 520-26-26. (78) 113-26-26.
Telegram: (90) 036-88-77.

Amonova Zarrina Djomiyevnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Homilador ayollarda bachadon bo'ynining saraton oldi kasalliklari rivojlanishining immun-biologik mexanizmlari, diagnostikasi va davolashni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.25.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-28-25, 150-28-28, (71) 214-83-11; e-mail: info@tma.uz

Toshpo'latov Abduqodir Maxammadjon o'g'lining 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Anklavlik sharoitida So'x tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollari" mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-14, 246-67-71; e-mail: nauka@nuu.uz, rector@nuu.uz

Madrimov Israil Modraximovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Havaskor va professional bokschilarning o'ziga xos individual xususiyatlari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.17.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz

Saidov Temur Tolibovichning 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha "Glaukوماتoz optik neyropatiyaning kompleks terapiyasida endonazal elektroforez va elektrostimulyatsiyaning samaradorligini baholash" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektor@sammu.uz

Xoliqov Muxridin Baxromjon o'g'lining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Mosh navlari parvarishida biostimulyatorlarni qo'llashning o'simlik o'sishi, rivojlanishi hamda don hosiliga ta'siri(Farg'ona viloyati o'tloqi-saz tuproqlar misolida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'hi ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz


Mamatqulov Orifjon Odiljon o'g'lining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'rta tolali S-7303 g'o'za navida ko'chat qalinligiga bog'liq holda Baystar defoliantining samaradorligi(Farg'ona viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-saz tuproqlari misolida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'hi ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz

Baxromov Shukrilla Sadullayevichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Almashlab ekish tizimidagi ekinlarni parvarishlashda begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini takomillashtirish (Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari misolida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'hi ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz

Ibragimova Dildoraxon Qaxramonovnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Yangi biostimulyatorlar va insektitsidlarni qo'llash usullarini g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyatining o'tloqi-saz tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil-10 aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'hi ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz

Akbarova Dono Rahmatdjonovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning tibbiy bilimlarini rivojlantirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.17.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi hamda 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosliklari bo'yicha "Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.17.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 9-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz




O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Mineral resurslar instituti davlat muassasasi jamoasi, taniqli geolog Lev GLEYZERning vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.



Yodnoma

SADOQAT ARZON INSONLARDA TOPILMAYDI

(Otam Asad Mamedov va onam Mohtob
Sevarovanning yorqin xotirasiga
bag'ishlayman)



Sadoqat qimmat mulkdir. U arzon insonlarda topilmaydi.

Umar ibn Hattob (roziyallohu anhu)

Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi bo'lgan otam boshidan kechirganlarini ko'p hikoya qilib berardi:

So'nggi xayrlashuv

– Xayr, Mohtobim. Mabodo qayta ko'rishga olmasak, ota-onamni, ukamni ehtiyot qil.

– Sizni duo qilib qolamiz. Sizni umrimning oxirigacha kutaman.

Uylanganimga endigina 15 kun bo'lgandi. Urushga ketar ekanman 15 kunlik hayotimni tushda ko'rgandek bo'ldim.

Oxirgi jang

Stalingrad ozod etilganidan o'n bir kun o'tib, qattiq jang bo'ldi.

Ko'krakkacha qazilgan yo'lak bo'ylab dushman-ga qarshi jang qilayotgan edik, qo'qqisdan ikki-uch qadam narida snaryad portlab, shu on vujudimni zirqiragan og'riq egalladi. Ne ko'z bilan ko'rayki, bir qo'lim uzilib ketgan, ikkinchi qo'lim ham uzilib, terisi osilib qolgan edi, hushimdan ketdim. Keyin nima bo'lganini bilmayman.

Yurakka urilgan zarba

17 kun deganda kasalxonada ko'zimni ochdim. “Endi qo'llarim yo'q, buyog'iga qanday yashayman?”, degan xayol qiynardi. Og'riqdan o'zimni qo'yarga joy topolmay qimirlagan ham edimki, ustimdagi yopinchiq sirg'alib pastga tushdi. Qarasam, ikki o'yog'im ham yo'q... Endi chidolmadim... Uvvos solib boshimni karovatning temiriga zarb bilan urganimdan yorilib ketdi. Vrachlar yana jarrohlik xonasiga olib ketishdi. Keyin bilsam, meni jang maydonidan sudrab olib chiqayotgan ikki hamshira yerga ko'milgan mina(portlovchi

moslama)ni bosishgan ekan, mina portlab, ikkovi ham halok bo'lgan, mening ikki oyog'imni esa uzib ketgan. Shundan keyin oilam meni o'lgan deb o'ylashi uchun uyga xat yozmadim. Bosh vrachdan meni nogironlar uyiga jo'natishlarini so'radim. Hayotdan umidim tamoman uzilgandi...

Umidning uyg'onishi

Bir necha oydan keyin kasalxonada birga davolangan sherigim mening tirikligim, og'ir ahvolda, ikki qo'l va ikki oyog'im yo'qligini yashirincha oilamga yozib yuboribdi. Bir necha kun o'tib, uydin kelgan xatni hamshiralardan biri o'qib berdi. “Sizni vafot etganmikan deb ko'p qayg'urdik. Yuragingiz urib turar ekan so'nggi nafasimgacha sizga qarab, boshimda ko'tarib yuraman. Hammamiz sizni kutamiz”.

Yonimdagi vrach va hamshiralalar menga qo'shilib yig'lab yuborishdi. Chunki ba'zi ayollar, kasalxonada erining avholini ko'rib, “Endi shu nogiron bilan yashaymanmi?” deb tashlab ketayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rib yuragimiz ezilardi. Xatning mazmunini eshitib, yana hayotga qayta boshladim.

Majruh yurakda oila qayg'usi

Hali urush davom etyapti. Xalqqa oziq-ovqat yetmaydi. Hamma joyda qahatchilik. Menga esa uyga quruq qo'l bilan borish qayg'usi tinchlik bermasdi. Kasalxonada menga o'xshagan nogironlarga har kuni bir bo'lak chaqmoq qand(oqqandning bir turi), non, ba'zan ho'l va quruq mevalar berishar, men esa ularni yemay yig'ib qo'yardim. Ba'zan hamshiralalar o'zim yemay to'plagan oziq-ovqatlarimni sotib olishardi...

Menga protez oyoqlar yasab berishdi. 2-3 oy deganda 2 ta qo'ltiqayoqda asta-sekin yurishni o'rgandim va javob berishdi. Ketar chog'im yonimda ikki xalta quritilgan non, 2-3 kilo chaqmoq qand, 15 metr mato, bir chamadon pulim bor edi. Bir hamshira uyimgacha eltib bordi.

Uchrashuv

Ota-onam va 10 yoshli ukam hovlida kutib oldi. Turmush o'rtog'im ular orasida yo'q edi. Tomog'imga nimadir tiqildi, ko'zimdan yosh quyilar edi. “Nahotki ayolim tashlab ketgan bo'lsa?” degan xayol yuragimni tirnardi. Yaqinlarim bilan quchoqlashib yig'lashdik. Ularning ustidagi yirtiq-yamoq kiyimlarni ko'rib yig'lab yubordim.

– Sen uyga kiraver, bizlar daraxt ostiga joy tayyorlaymiz. Seni ko'rgani kelganlarni shu yerda kutib olamiz.

Qo'ltiqayoqda uyga kirishim bilan turmush o'rtog'im meni quchoqlab yig'lab yubordi:

– Sizni yetkazganiga Ollohga shukr. Endi qo'l-oyog'ingiz o'zim bo'laman. Siz boshimizda omon bo'lsangiz bo'ldi, – dedi ko'zyoshlarini artar ekan.

Qarasam, yirtiq-yamoq kiyimlardan badani ko'rinmasligi uchun kanop qopdan yopinchiq tikib, o'ranib olgan. Ustidagi kiyimidan uyalib uydin chiqmagan ekan...

Xotima

Meni olib kelgan hamshira bir hafta uyimizda turdi. Ertasi kuni kolxoz omboridan 5 kg bug'doy, 3 kg makajoxori, 2 kg tariq keltirib berishdi.

Bir haftadan keyin ishga chiqdim. Meni yana paxta brigadiri qilib saylashdi.

Va'daga vafo

Otam urushdan kelib 7 yil paxta brigadiri, onam esa otamga yordamchi, keyin kutubxonachi bo'lib 1965-yilgacha ishladi. Onam otamga vafot etgunicha qaradi.

Ba'zi oilalarda bir-birini hurmat qilmay, qadriga yetmaydigan, noshukur odamlarni ko'rsam, otamning jasorati, onamning sadoqati ko'z oldimga kelaveradi.

Po'lat MANSUR,
faxriy o'qituvchi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6030. Tiraji 6928.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Ma'rifat”dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.